

Ahmad Muhammad Tursun

# QAYNONA VA KELIN

«Namangan» nashriyoti

## MUQADDIMA

Bismillahir rohmanir rohiym.

Xoliqimiz Alloh taologa beadam hamdu sanolar va Payg`ambarimiz Muhammad alayhissalomga salovotu durudlar bo`lsin.

Hayotimizning qaysi sohasida baxtu saodatni, xususan, oiladagi totuvlik-iqbolni, farog`atni izlasak, uni albatta sharqona axloq-odobimizdan topamiz. Shu boiski, turmush tarzi buzuq aqidalar asosiga qurilgan qavmlar musulmonlarning oilaviy hayotiga, undagi ahillik va farog`atga, axloq va odobga havas bilan qaraydilar. Sharqona axloqdan chekinilgan xonadonlarda esa oila totuvligiga putur yetib, munosabatlar keskinlashib borgan. Er va xotin, ota-ona hamda farzandlar o`rtasida, oila va qarindosh-urug`lar orasida arzimas sabab-bahonalar bilan urush-janjallar, murosasizliklar kelib chiqqan. Ba`zi hollarda bular yanada jiddiylashib, o`zaro adovat, dushmanchilik darajasiga yetib boradi. Ayniqsa, bu hol butun dunyoda ma`lumu mashhur «qaynona va kelin» munosabatlarida ko`proq ko`zga tashlanadi.

Xo`sh, ana shunday murosasizliklarning, kelishmovchiliklarning oldini olish mumkinmi? Buning uchun qaynona va kelin, oilaning boshqa a`zolari nima qilishlari kerak? Bu haqda Islom dinining qanday ko`rsatmalari, tanbehlari bor? Qo`lingizdagi ushbu kamtarona urinishga ana shu savollarga bir qadar javob topmoq niyatida tartib berildi. Agar maqsadga erisholgan bo`lsak, bu ulug` Rabbimizning lutfu marhamatidan, aksincha bo`lsa, o`quvchilarimiz ma`zur tutgaylar. Alloh taolo barchamizni tavfiq va hidoyat nurlari ila nurlantirsin, oilalarimizga tinchlik, farog`at va totuvlik ato etsin, omin!

## SIZ QAYNONA BO`LDINGIZ...

Mana ikki yoshga nikoh o`qildi, to`y ham o`tdi. Mana siz necha yillik orzuigingizga erishdingiz. Alloh taolo xonadoningizga muborak bir kelinni tuhfa etdi. O`g`il farzand ko`rgandayoq yuragingiz qatlariga bitilgan «bir munosib kelin olish», «kelin emas, qiz olish» haqidagi yoqimli istaklar, shirin ilinjar ro`yobga chiqdi. Yillab yemay yiqqanlaringizni el oldiga dasturxon qilib yozdingiz. Yillab kiymay asraganlaringizni - qo`lingizga tushgan bir parcha matomi, birorta zirakmi - barini «egasi»ga topshirib xotirjam bo`ldingiz. Bugun siz - qaynonasiz.

Mahallama-mahalla kezib kelin axtarganingizda, qarindosh-urug`lar davrasida «Bu yil kelin olmoqchiman», deb qizi borning yuragiga shirin g`uluv solganingizda, ko`chadan o`tib borayotgan qaqajon qizlarning ortidan ma`yus termulib yer-u ko`kka ishonmaydigan o`g`lingizga munosib juft izlaganingizda, nihoyat mos kelinni topib to`y tadorigini ko`rayotganingizda ham faqat bugungi qaynonalik baxtini, nash`asini o`ylab yelib-yugurgansiz. Endi siz - qaynonasiz.

Niyatlaringizning, xayollaringizning chek-chegarasi yo`q. Keliningiz odob-axloqda, sharmu hayoda, muhabbat va sadoqatda, iffat va nazokatda yagona bo`ladi. O`g`lingiz bilan nihoyatda ahil-totuv, shirin

turmush kechiradi. Erining soyasiga ko'rpacha soladi, imosiga hushyor, xizmatiga tayyor turadi. U bilan gap talashmaydi, har ishga ilashmaydi.

Qaynona-qaynotaning hurmatini joyiga qo'yadi: labidan salom, qo'lidan taom tushmaydi. Hali choy ko'tarib yuguradi, hali tahoratingizga suv. Bir og'iz so'zingizga mahtal, birgina tomoq qirishingizga shay. Bir yoqda o'g'il-qizlaringiz ham kelinning «xizmati»dan umidvor bo'lib turishibdi. Yangi keliningiz birovining shimini dazmollab, birisining tuflisini moylab berishi, qaynsinglisining sochini ham turmaklab qo'yishi kerak. Xullas, barcha xonadonlarda bo'lgani kabi to'y oldidagi shirin ilinjlar, havoyi xayollar sizga ham begona emas. Kelin timsolida o'g'lingizga bir jufti halol emas, go'yoki bir xizmatkor, bir «qul» qabul qildingiz.

Ammo oradan ko'p o'tmay, qat-qat orzularingiz sarob chiqib qoldi. Ne-ne umidlar bilan, mablag' sarflab katta to'ylar bilan olingan keliningiz «oltin» emas, «mis» chiqib qoldi. Nazdingizda hammaning kelini xizmatni, hurmatni, himmatni do'ndirib qo'yyapti-yu, sizniki hech narsaga ulgurolmaydi. U tanbal, ishyoqmas ham emas, qo'lini sovuq suvga urishga erinadiganlardan ham emas.

Unda gap nimada? Kechagina xonadoningizga kelin bo'lib tushgan qiz uchun erining yumushlari, uning ko'rsatmalari ustunroq tuyuladi. U shuning uchun avval erining kam-ko'stini to'g'rilab, ishga jo'natvolishga intiladi. Oqibatda bu yoqda sizning yumushlaringiz chala qoladi. Narigi tomonda eringiz «Dasturxonni yig'ib olmaysizmi?» deb baqirishga tushadi. U kishini tinchitay, deb chopsa, bu yoqda qaynini, qaynsingillar to'ng'illashni, g'ing'illashni boshlab yuborishadi. Hech kim «Shu kelin bechoraning bittagina joni bor, ehtimol shuncha odamning xizmatiga ulgurmayotgandir, buning ustiga xonadonimizga yangi mehmon, bizdagi tartib-muomalotlarni, oila a'zolarining fe'l-atvorini hali tushunib ololmagandir?» demaydi. Har bir harakatidan, har bir qilig'idan nuqs topib, «o'tirsa - o'poq, tursa - so'poq» qilaveradi. Oqibat esa bir kuni kelinning bardoshi tugab, ish katta mojaroga aylanadi. Endi shu yerda diqqatingizni bu haqdagi islomiy tartiblarga qaratmoqchimiz. Dinimiz talabiga ko'ra, keliningiz o'g'lingizga nikohlab berilgan va uning zimmasiga faqat o'g'lingiz oldidagi burchlargina yuklangan. Ana shu burchlar haqida quyiroqda batafsil to'xtalib o'tamiz. Shunday ekan, kelinning erning ota-onasi, ini-singillariga xizmat qilishi erga bo'lgan hurmati, muhabbati tufaylidir, xolos. Alloh taoloning Qur'oni karimdagi «Parvardigoringiz yolg'iz Uning o'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi», degan ko'rsatmasiga binoan, u erining ota-onasiga xizmat qiladi, yumushlarini bajaradi. Shunday bo'lgach, uni qul o'rnida ko'rib ro'zg'orning hamma yukini yelkasiga ortib qo'yish, barcha oila a'zolarining istak-xohishlarini bajartirishga urinish yosh juvonga zulmdan boshqa narsa emas. Hozirgi paytga kelib islomiy qoidalar, tartiblar unut bo'layozgan xonadonlarda kelinga past nazar bilan qarash, bo'lar-bo'lmasga xo'rlash, «xizmatkor» sifatida unga ro'zg'orning barcha og'ir-engil yumushlarini qo'sh-qo'llab topshirib qo'yish hollarining ko'paygani ham shundan. Bu ishda ayniqsa siz - qaynonalarning bemehrlarcha bosh-qosh bo'layotganingiz achinarlidir.

**RIVOYAT.** Ota-ona ulug' zot, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom «Jannat - onalarning oyog'i ostidadur», deganlar. Musoviya ibn Hayyida (r.a.) Rasulullohdan «Yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?» deb so'rganlarida, uch martagacha «Onangga», deganlar va to'rtinchi marotaba so'rganlarida, «Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga», deganlar. Onasini opichlab Xonai Ka'bani tavof qildirib yurgan bir yamanlik kishi Abdulloh ibn Umardan «Onamning haqqini shu xizmatim bilan ado qila oldimmi?» deb so'rganida, u kishi: «Yo'q, bu xizmatim seni tug'ish paytida onangni qiynab tutgan to'lg'oqlarning bittasiga ham teng kelolmaydi», degan ekanlar.

Xo'sh, ona shunchalik tabarruk, ulug' zot ekan, ota-onaga oq bo'lish Alloh taologa shirk keltirish bilan baravar og'ir gunoh ekan, unda nega «ona» so'zi oldiga «qayn» qo'shimchasi qo'shilishi bilan u endi yovuz bir kimsaga aylanib qolishi kerak? Nega kelinlar bu so'zni eshitib ranglari o'chishi, g'azabga minishlari kerak? «Kelin bilan qaynona bir qozonda qaynamas», deb birinchi kunlardanoq dushmanlik urug'lari sepilishi kerak? Bu tarbiya ko'rmaganlik, nodonlik, johillikdan boshqa bir narsa emas. Yaxshi niyatlar bilan kelin olib, ko'zingizning oqu qorasi bo'lmish suyukli o'g'lingizni unga topshirib qo'yib, endi o'sha aziz kelin bilan yovlashib, olishib yurish sizning onalik fitratingizga mos

tusharmikan?

Bir do'stim «Agar kelini bilan opoq-chapoq yashaydigan, o'z qizi qatorida ko'radigan qaynonani topib bersang, boshidan suv o'girib ichardim, oyog'idan o'pardim», degan edi. Bu gapga uncha e'tibor bermagandim. Keyin xorijiy o'lkalarda qaynonalar haqida ko'pgina masxaraomuz so'zlar yurganini eshitib hayron bo'ldim. Aslida bu ham xolva ekan. Xizmat taqozosi bilan «Qaynona-kelin» mavzusida yuzlab kishilar bilan gaplashishga, ularning turmush tajribalarini o'rganib tadqiq qilishga to'g'ri keldi. Natijalar dilga g'ashlik soladi: emishki, oiladagi janjallarning 60-70 foizi qaynona «sho'rlik»ning aybi bilan sodir bo'larmish. Bu gaplarga ishongim kelmasa-da, na iloj, raqamlar judayam o'jar bo'larkan. Unda nima qilish kerak? Unda islomiy munosabatlarga o'tish, shariat ko'rsatmalariga bo'ysunish kerak, xolos. Bu xushxulqli bo'lish, o'zgalarga rahmdillik ko'rsatish, birovga ozor yetkazmaslik va zulm qilmaslik borasida Alloh taoloning amrlarini, Rasulullohning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga kirishish kerak, deganidir.

Endi o'zingiz tasavvur qilib ko'ring. Ana shu ko'zingizga mo'ltirab, iligi qaltirab turgan ayol - o'zga bir ota-onaning o'n sakkiz yil avaylab, «papa»lab, o'zi yemay yedirib, o'zi kiymay kiydirib, yeru ko'kka ishonmay voyaga etkazgan arzanda qizi. Uning sha'ni, iffatini asrash, yaxshi tarbiya berish, odob-axloqini o'nglash, ro'zg'or ishlariga o'rgatish uchun qancha oromidan kechgan. «O'ksiydi», «birovning xasmi», «uyda mehmon», deb hatto qattiq gapirmagan, tergamagan. Sizning «Qudachilik – ming yilchilik, o'z qizimday ko'raman», degan va'dalaringizga ishonib ana shu qalbining bir parchasini sizga qo'sh-qo'llab tutgan.

O'n sakkiz yashar qiz hali tajribasiz, g'o'r, hayotning past-balandini ilg'amaydi, ehtimol kattalarni hurmat qilishni hali o'rganmagan, balki xonadoningizda yillar mobaynida tarkib topgan tartib-qoidalarni, an'analarni u hali tushunib yetmagandir? Oila a'zolarining tabiatini tushunib, ko'nglini topolmagandir? Shunday ekan, nega siz bag'rikenglik qilib, rahm-shafqat ko'rsatib, yaxshi gapirib, alqab va aldab, aylanib-o'rgilib yo'lingizga sololmaysiz?

Xo'p, u xato qilibdi, adashibdi. Biror yumushni siz aytganday, siz xohlaganday qilmabdi. Bundan qiyomat qoim bo'lmagandir? Axir siz ham qirqqa, ellikka, oltmishga kirib endi tajriba orttirdingiz, hozirgi aqlingizni topdingiz. Shunday ekan, unga ham o'rgating, nasihat qiling, holatiga tushuning, yo'lingizga soling. Qizingizni uning o'rniga qo'yib ko'ring. Bordi-yu, qizingiz, jigabandigiz o'zga xonadonga kelin bo'lsa, unga qanday muomala qilishlarini xohlaringiz? Shu haqda bir tasavvur qilib ko'ring.

Yo'q, bu to'g'rida o'ylab o'tirmaymiz. Darrov ayb qidirishga o'tamiz. Bitta kamchiligiga o'ntasini qo'shib shishiramiz. Hatto qo'shnilar-u tanish-bilish, qarindosh-urug'largacha hasrat qilib chiqamiz. Bunga achchiqlangan kelinni «Qovog'ini uydi, to'nini teskari kiyib oldi», deb haydashga urinamiz. Nene umidlar, qancha qiyinchiliklar bilan tiklangan oila qasrini vayron qilishga chog'lanamiz. Agar er-xotinning murosalarini bo'lmasa ham go'rgaydi, aksincha o'g'lingiz bilan keliningiz o'rtasidagi munosabatlar havas qilguday: bir-biriga muhabbatli, sadoqatli, oqibatli.

**VOQEA.** To'y bo'lganidan bir yil o'tmayoq, yoshgina oila buzilib ketdi. Kelindan noahillikning sababini so'rashuvdi, anchagacha sukut saqlab turdi-da, keyin sekingina: «Er-xotin yaxshi edik. Ammo xonadondagilar bilan murosamiz kelishmadi», deya oldi. Keyin kuyovdan urish-janjallarning sababini so'radik. Uning javobi quyidagicha bo'ldi: «Uylanganimning to'rtinchi oyi edi. Onam bo'lar-bo'lmasga hayotimizga aralashib, uni zaharga aylantira boshladilar. Garchi turmush o'rtog'imni sevib, hurmat qilsam-da, uni himoya qilishga o'zimda jur'at topolmadim. Axir onaga «Siz nohaqsiz», deb qaysi o'g'il ayta oladi? Janjal, baqir-chaqir tinmay qoldi. Xotinimni, desam, u yoqda boqib katta qilgan onam, u kishini, desam, bu yoqda xotinim. Ikki o't orasida qoldim. Oxiri turmushdan fayz ketdi, mojarolar jonimga tegdi. Xotinimning javobini berib yuborishga to'g'ri keldi. Uni sevib olgandim, hozir ham sevaman, shuning uchun onam yangi kelin haqida gap ochsalar, eshitgim ham kelmaydi. Dadamning yo'qliklari juda bilinib qoldi, balki onamga tushuntirib yo'lga solarmidilar?»

«Kelin olish oson, qaynona bo'lish qiyin», deyishgan momolarimiz. Bu kelin kelishi bilan qaynona hamma yumush-tashvishlardan forig' bo'lib rohat-farog'atga o'tadi, degani emas. Aksincha uning

zimmasiga o'zga xonadonning farzandi o'z oilasida palak otishi, ne mashaqqat bilan tiklangan oilaning kamol yetishi, o'g'li va kelini totuv turmush kechirishi yo'lida katta mas'uliyat yuklandi, degani. Axir «Kattalar - yoshlar uchun bir ko'prik», deb bejizga aytishmagan. Axir bekorga kelinni bir yerdan boshqa bir yerga ko'chirib o'tqazilgan niholga o'xshatishmaganki, unga alohida mehr-muhabbat, alohida parvarish kerak.

### **AHILLIKKA NE YETSIN!**

Xo'sh, kelin bilan ahil yashash, oilada totuvlik va farog'at bo'lishi uchun qaynona nimalar qilishi kerak? Bu haqda allomalarimiz, mashoyixlarimiz juda ko'p pandu nasihatlar qilishgan. Katta hayot tajribasiga ega bo'lgan momolarimizning aytganlari, qilganlari hozirgi qaynonalarimiz uchun bir ibrat maktabidir. Quyidagi ana shunday hayot tajribalari, yaxshi qaynona bo'lish qoidalari yordam beradi, degan umiddamiz:

### **QAYNONALARGA O'N MASLAHAT**

1. Keliningizni o'z bolangizdan ustun ko'rib «qizim-qizim»lab mehr ko'rsating, uy-ro'zg'or ishlarini erinmay o'rgating, aybu xatolarini yashiring. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: «Kim bu dunyoda qiynalgan bir musulmonning og'irini yengil qilsa, Alloh uning qiyomatdagi og'irini yengil qiladi, kimki bu dunyoda bir musulmonning aybini yashirsa, Alloh dunyo va oxiratda uning aybini yashiradi», deganlar.

2. Kelin bilan o'g'lingizning munosabatlari birinchi kundanoq samimiy bo'lishiga harakat qiling. Kelinga o'g'ilni, o'g'ilga kelinni maqtang, aslo shikoyat qila ko'rmang. Chunki Rasululloh (s.a.v.): «Sizlarning yaxshilaringiz - xushxulqli, shirin suhbatlilaringizdir», deb uqtirganlar.

3. Farzandlaringiz oldida kelinning sha'ni va obro'sini ko'tarishga harakat qiling, chunki oilada boshqalarning kelinga muomalasi sizga qarab bo'ladi. Janobi Rasululloh (s.a.v.): «Kimki yoshi kichiklarimizga rahmdil bo'lmasa va kattalarimizning qadr-qimmatini va haqqini bilmasa, u odam bizning qavmdan emas», deganlar.

4. Er-xotin g'ijillashib yoki urishib qolsa, siz kelinning tarafini oling. Chunki o'g'il o'zingizniki - gapingiz botmaydi, aksincha o'sha paytda kelinga aytgan bir og'iz qattiq gapingiz mojaroni kuchaytiradi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom «Odamlar bilan xushmuomala bo'linglar, ularga qattiqqo'llik qilib behayo so'zlamanglar!» deb ta'lim berganlar.

5. Yosh kelin ota-onasini sog'inib qolsa, darrov ruxsat bering, chunki yangi kelinlikda uning boshqa xonadonga ko'nikishi, yaqinlaridan uzilib qolishi ancha qiyin kechadi. Keyinchalik o'zidan ortib ko'pda boravermaydi. Janobi Rasulullohdan «Kim mehribonlik qilmas ekan, mehribonlik ko'rmagaydir!» degan hadisi sharif vorid bo'lgan.

6. Keliningiz oldida boshqa kelinlarning husnini, kiyim va taqinchoqlarini, epchilligi va epliligini, o'zga qudalarining sarfu xarajatlarini aslo maqtamang, chunki uni kamsitgan, ozor bergan bo'lasiz. Faqat boshqalarning odobi, muomalasini ibrat qilib ko'rsatish mumkin. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: «Xotinlarning barakalirog'i sarf-xarajatni kamroq talab qilganidir», deganlar.

7. Kelinning xizmatidan, ovqatidan, yurish-turishidan ayb topavermang. O'zingiz yangi kelin bo'lgan davrlarni bir esga oling. Aybi bo'lsa, malol kelmaydigan qilib o'ziga ayting. Chunki oliy xulq sohibi janobi Rasululloh hech kimni yuziga yomonlamas, orqasidan ayblamas, aybini axtarmas edilar.

8. Agar o'g'lingiz xotiniga sovg'a olib kelsa, «Nega menga yoki singlingga qo'shib kelmading?» deb janjal chiqarishga shoshilmang. Balki puli yetmagandir yoki farosati! Keyinchalik buni o'ziga tushuntiring. Rasuli akramning (s.a.v.) «Odamlar ichida xotin kishiga nisbatan haqlirog'i uning eridir», degan hadislarini bir eslang.

9. Qaynotalar kelin olish xarajatlarini qilgan, shuning uchun ko'pincha kelinning yonini olib maqtab turishadi. Bundan siz «Demak, erim uni yaxshi ko'rib qolibdi», degan noto'g'ri xulosa chiqarib

janjal ko'tarmang. Bu g'irt bema'nilikdir. Janobi Rasulullohning «Kim birovning yoki o'z xodimining oilasida mojaro yoki nizo chiqishiga sababchi bo'lsa, u Islom ahlidan emas», degan hadislarini darrov yodga oling.

10. Hech qachon kelinim yomon chiqib qoldi, o'g'limni qayta uylantiraman, deb o'ylamaslik kerak. «Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadi, yomon so'z bilan qilich qinidan chiqadi». Qolaversa, yana to'y qilish uchun qancha harakat va xarajat kerak bo'ladi. Axir oliy xulq sohibi janobi Payg'ambarimiz birovni aslo ranjitmasdilar, insonlarning xushxulqligi edilar.

Ha, muhtaram onajon va opaxon, qaynonalikning ishi og'ir, yumushi mushkul! O'zga bir xonadonda, begona bir muhitda o'sgan qizni o'z oilangiz a'zosi, o'z bolangizga aylanishi uchun, o'g'lingiz bilan baxtli, saodatli hayot kechirishi uchun sizdan ancha-muncha bag'rikenglik, kechirimlilik, mehr-muhabbat talab qilinadi. Zero, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: «Sizlar musulmoni komil bo'lmaguningizcha jannatga kira olmaysizlar. Musulmoni komil bo'lish uchun esa bir-biringizga muhabbat qo'ymog'ingiz shart», deganlar.

Jannat - har bir mo'minning eng ulug' orzusi. Siz jannatga kirishni xohlaysizmi? Unda Rasulullohning o'gitlariga amal qiling, o'g'lingizning et-tirnog'iga, oilangizning a'zosiga aylangan kelingizga ham muhabbat qo'ying, xato-nuqsonlarini kechiring, bilmaganlarini o'rgatib yo'lingizga soling, uning obro'sini asrang. Ana shunda siz komil musulmon bo'lasiz, oilangizga tinchlik, totuvlik, fayzu baraka, farog'at oshyon quradi.

### **SIZ KELIN BO'LDINGIZ...**

Egningizda oppoq to'y libosi - bugun siz kelin bo'ldingiz. O'zga bir xonadon sizni quchoq ochib kutib oldi, boshingizdan gullar sochib qarshiladi. Yigirma yil boqib-tarbiyalab voyaga yetkazgan o'g'illarining taqdirini sizga ishonib topshirdi. «Hovlimizga kelin keldi, qut-baraka keldi, xursandchilik keldi, qadami qutlug' bo'lsin!» deb duolar qildi. Endi siz uchun yangi bir hayot boshlanadi. O'n sakkiz yil yashagan xonadoningizni tark etib, begona kishilar bilan til topishib, el bo'lishingiz kerak. Yaqinlaringizdan, mehribon ota-onangizdan uzilib eringizning, qaynona-qaynotangizning eng yaqin kishisi bo'lib qolishingiz kerak. Aks holda ikki oilada ham huzur-halovat, xotirjamlik bo'lmaydi. Buning uchun nima qilish kerak?

**RIVoyAT.** Horisning qizi Asmo kelin bo'lib kuyovnikiga ketayotganida onasi Umoma unga shunday nasihat qilgan ekan: «Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla! Agar bir qiz ona va otasining kambag'alligi uchun erga berilishi kerak bo'lsaydi, sen aslo uzatilmagan bo'larding. Chunki otang juda badavlat, katta shuhrat va martaba egasidir. Lekin hayot boshqachadir. Alloh bizlarni yaratgan va biz uchun hayot qonunlarini bergan. Har bir yoshdagi inson ana shu qonunlar chegarasida turmush kechiradi. Alloh bergan qonunga ko'ra, hayotga qadam qo'yish vaqti kelganda har bir qiz bir erkakka, xojaga, u esa ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar xotinlar uchun, xotinlar erkaklar uchun yaratilgandir. Bu - Allohning qonuni, uni hech kim buza olmaydi, u qiyomatgacha davom etadi. Shu sababki, sen, qizim, tug'ilib o'sgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab o'ynab yurgan yeringdan o'zing ham bilmaydigan bir notanish uyga borasan, shunga qadar o'zing yaxshi bilmagan inson uyiga, o'z uying bo'ladigan joyga borasan.

Ey mening jigarporam, sen eringga shunday xizmat qilki, u ham senga qul bo'lsin. Sen unga yer bo'lki, u senga osmon bo'lsin! Aytganlarimga amal qilsang, ering bilan go'zal hayot kechirib, mas'ud, baxtiyor turmush ko'rasizlar. Ayniqsa, eringning qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'rsat, chunki ularni hurmat qilish erning e'tiborini, mehr-muhabbatini qozonmoq, demakdir. Ularni hurmat qilish - erni hurmat qilish, qadrlashdir».

Umoma qiziga qilgan nasihatlarida erning yaqinlariga alohida hurmat ko'rsatishni ta'kidlaydi. Er uchun eng yaqin inson kim? Albatta uni tug'ib, oq sut berib, qancha tunlarini bedor o'tkazish evaziga avaylab katta qilib, mana shunday ko'rkam, aqlli, sog'lom, baquvvat yigit holiga keltirgan ona erning eng yaqin kishisidir. Demak, erning onasi, ya'ni qaynonaning hurmatini joyiga qo'yish, ko'nglini olish,

xizmatini qilish lozim bo'larkan.

Bu aqlli, dono qizlar uchun, kelinlik majburiyatlarini boshdanoq to'g'ri anglab olgan qizlar uchun eng to'g'ri yo'ldir. Ota-bobolarimiz «Gulni sevgan tikonini ham e'zozlaydi», deyishadi. Tikonini izzat qilmagan gul isidan bebahra qoladi. Erning borligi, sizni suyib-erkalashi, aytganingizni muhayyo qilishi yaxshi-yu, uning ota-onasi, yaqinlari «puf sassiq» bo'lishi mumkinmi? Erning xeshlarini, ayniqsa, ota-onasini hurmat qilolmagan kelin xojasining ko'nglini ololmaydi, mehrini qozonolmaydi, nafratiga uchrab, muhabbatidan bebahra bo'ladi. Bora-bora erining ko'ziga xunuk ko'rinib, oila baxtiga darz keta boshlaydi. Kelin - qaynonaning ma'naviy qizi, qaynona - uning ikkinchi onasi, deyishadi. Birinchi onangiz o'z uyingizda qoldimi, demak, kuyov xonadonida siz uchun eng yaqin, mehribon, g'amxo'r kishi qaynona bo'ladi. Qaynona - hayotdagi yo'ldoshingizning, suyukli eringizning tuqqan onasi, tanasining bir parchasini sizga tortiq qilgan saxovatpesha, bag'rikeng bir inson. Agar u eringizni tug'ib bermaganida bu yaxshi insonga zavja bo'lolmasdingiz. Agar u xohlamaganida sovchi yuborib sizni kelin qilmasdi. Demak, siz uchun erni qancha hurmatu izzat qilish lozim bo'lsa, uning onasini (otasini) ham ardoqlash, ta'zimu rioyat qilish shunchalik zarurdir. Agar uni qaynona sifatida izzat qilolmasangiz, hech bo'lmasa, yoshi ulug'ligi uchun hurmat ko'rsatishga majbursiz. Chunki Payg'ambar alayhissalom «Kimki kichiklarga rahmu shafqatli, kattalarga izzat-ikromli bo'lmasa, u bizlardan emas», deb ta'lim berganlar. Mana siz kuyov xonadoniga kelin bo'lib tushdingiz. Qaynonangiz birinchi kunlardan oq «qizim-qizim»lab hurmatlab turibdi. Siz ham o'sha hurmatga yarasha itoat ko'rsating, gapini qaytarmang. Uning yoshi ulug', hayotda ko'pni ko'rgan. Nima yaxshi-yu, nima yomon, anglab yetgan. Shunday bo'lgach, bilmaganlaringizni o'rgatadi, ro'zg'orni yuritish sirlaridan voqif qiladi, epli, tejimli, sarishta bo'lishdan saboq beradi. Uning aytganlarini jon qulog'ingiz bilan tinglang, sizga yoqmasa ham, burningizni jiyirib, labingizni burmang. Xo'p bo'ladi, deb bajarishga shoshiling. Chunki Alloh taolo Qur'oni karimda ota-onaga yaxshilik qilishni, ularga qarab «uf» tortmaslikni, ularning so'zlarini qaytarmaslikni buyurgan. Ular oldida o'zini xokisor tutishga amr qilgan. Qaynona ham - ona, ona bo'lganda ham er-xotin - ikkovingizning onangiz. Qaynonangiz sizni kelin qilayotganida siz bilan darrov yovlashib qolamiz yoki dushmanimga aylanadi, deb niyat qilmaydi. Har qanday «marshal» qaynona bo'lmasin, itoatli, odobli, hayoli kelin qarshisida qilichi sinib, so'zi tinib qolaveradi. Uning yoshini, eringizning onasi ekanini, ro'zg'or yuritishdagi katta tajribasini inobatga olib muomalada bo'lsangiz, faqat yutasiz.

Qaynonaning xayrixohlik bilan o'rgatgan ishlariga jahlingiz chiqmasin. Chunki u sizni kamsitmoq yoki bilmaganingizni ta'na qilmoq uchun emas, o'z bilganini sizga ko'rsatmoq uchun o'rgatyapti. Bunga rahmat aytib qabul qiling. Qarichilik ortidanmi yoki jahli chiqib turganidanmi, qizishib tanbeh bersa, arazlamang, muloyimlik ko'rsating, sabr qiling. Aks holda murosa buziladi, dilidan qolasiz. Oilada notinchliklar, sovuqchiliklar shamoli esib qoladi. Orada eringiz bechora eziladi. Chunki u ikki o't orasida qoladi. Bir tomonda - oq yuvib-oq taragan, voyaga yetkazgan onasi, ikkinchi tomonda - o'z xonadonini tark etib, qolgan hayotini eriga baxshida qilishga ont ichgan suyukli yori.

Onangiz sizga baxt tilayversa-yu, sizni turmush, deya atalmish katta hayot sinoviga tayyorlamagan bo'lsa, hayot saboqlaridan ta'lim bermagan bo'lsa, ovqat pishirish, non yopish, kir yuvish, bola tarbiyalash kabi turmushning zaruriy yumushlarini o'rgatmagan bo'lsa, qaynonangiz aybdor emas-ku! Qaynona va kelin mojarolarining aksariyatiga bo'lg'usi kelinlarimizning yengiltakligi, tarbiyasizligi, turmush sinovlariga tayyor emasligi sabab bo'lmayaptimikan?

O'zbek xonadonida, islomiy tarbiya ko'rgan oilalarda qadim-qadimdan qizlarni boradigan yeridagi issiq-sovuqqa, achchiq-tiziqqa ko'nikishga o'rgatadilar. «Endi uying o'sha yer, u joydan gap tashib kelma, qaynonang bilan murosa qil, sen yaxshi bo'lsang, xizmatini ayamasang, ular ham boshga ko'tarib yuradi» qabilida nasihatlar qilingan.

**VOQEA.** «Men 1996 yili turmushga chiqdim. Erim bilan juda ahil va inoq edik. Qaynonam esa o'z qiziday sevardi. Ammo arzimasi bir voqea baxtimni poymol qildi, shirin turmushga og'u soldi.

O'sha kuni erim ishxonasidan mukofot puli olib, onasiga ko'ylak olib kelgan edi. Buni ko'rib fe'lim buzildi. «Turmush qurganimizga uch yil bo'libdi-yu, hali menga tuzukroq bir sovg'a qilmadi», deb

o'yladim. Erimga aytuvdim, «Farzand ko'rganimizda ko'ylak olib berdim-ku», dedi u bamaylixotir. Xunobim oshdi. Keyin uyga borganimda oyim yaramga tuz sepdilar: «O'zi ering orzu-havasni bilmagan yigit ekan... Munkillagan onasini yasantirish o'rniga oilasini o'ylasa bo'lmaydimi? Axir sen yoshsan, avji o'ynab-kuladigan davring. Hozir kiyasang, qachon kiyasan? Adashdim, adashdim, bo'lmasa, o'sha tagi pastlarga qiz berarmidim...» Oyimning gaplari meni tamoman yo'ldan ozdirdi. To'nimni teskari kiyib oldim. Erim va qaynonam hayron. Ona-bola nasihat qilishsa - kar, yo'l ko'rsatishsa - ko'r bo'lib oldim. Go'yo izzat-nafsim poymol, qadrim yer bilan yakson, obro'yim bir pul, dillarim vayron. Ammo qattiq yanglishgan ekanman.

Kullas, erim va qaynonamning yalinib-yolvorishlari, pandu nasihatlari kor qilmadi, ajrashib ketdim. Ishga kirib dil yaralarim tuzalganday bo'ldi. Ammo o'g'lim «dada, dada»lab yig'laganida, «Tor qornimga siqqan, keng uyimga ham sig'adi», deb meni ajratib olgan onamning endi malol ko'rganday qovoq-tumshuq osiltirib olganida naqadar mash'um xatoga yo'l qo'yganimni tushunib yetdim. Bir parcha matoh, deb shunday mehribon, yaqin kishilarimdan yuz o'g'irganimni o'ylab tuni bilan oh chekaman, ko'z yoshlarim jaladay quyiladi».

Ha, qaynona - xonadonning eng katta bekasi, xonimi, eringizning mehribon, saxiy onasi. Eringizning muhabbati va hurmati boshingizni aylantirib qo'ymasin, uyda o'zingizni xo'jayin his etib hukm yuritmoqchi bo'lmang. Bu bilan qaynonangiz va o'zingiz o'rtangizga sovuqchilik tushirasiz, choh paydo qilasiz, eringiz va yaqinlaringizning nazaridan qolasiz.

**RIVoyAT.** Alqama ismli dindor bir yigit bo'lib, u namoz o'qir va sadaqa berardi. Kunlardan bir kuni uning tobi qochib xotinini Rasulullohga (s.a.v.) yubordi. Yigitning ahvoli jiddiyligini eshitib Payg'ambar alayhissalom hazrat Bilol, hazrat Ali, Salmon Forsiy va Ammorlarni uning huzuriga yubordilar. Borishsa, bemor og'ir ahvolda, hatto tavhid kalimasini aytmay tutilib, g'o'ldirab yotibdi. Hazrat Bilol ahvolni Rasulullohga tushuntirdi. U zot: «Ota-onasi hayotmi?» deb so'radilar. Hazrat Bilol: «Otasi o'lgan, keksa onasi bor», dedilar. Rasululloh onasini ko'rib surishtirdilar. Nihoyat sir oydinlashib shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'g'il xotining gapiga kirib onasini qattiq og'rintirgan, xotinini onadan afzal ko'rib dilini vayron, kunini xufton qilgan ekan. Shu bois tavhid kalimasini ayta olmay tili tutilgan. Rasulullohning aralashuvlari bilan ona o'lim to'shagida yotgan o'g'lidan rozi bo'ldi va u shahodat keltirib jon taslim qildi. Rasululloh janoza namozini o'qiganlaridan so'ng qabr boshida ashoblarga shunday dedilar: «Ey ashobim! Har kim xotining so'zi bilan onasini xafa qilsa, xotinini onasidan ustun tutsa, ul odamga Allohning la'nati bo'ladi. Uning farz va nafl namozlari qabul bo'lmaydi. Ul odamning borar yeri jahannamdir». Muhtaram kelinlar, o'zingizning huzur-halovatingizni deb eringizni onasidan yuz o'girishga majburlamang, tantiqligingiz va izzatlabligingiz bilan uning iymondan, diyonatdan ajralib, ota-onasiga osiy bo'lib qolishiga sababchi bo'lmang. U holda siz ham Alloh taoloning la'natiga duchor bo'lishingiz aniq!

### **QIZIM, SENG AYTAMAN...**

«Oynai jahon» orqali namoyish etilgan ko'rsatuvlardan birida turmush qurganiga endigina uch oy bo'lgan bir kelin hech istiholasiz, uyalmay-netmay kuyov xonadonidagilar unga jabr-sitam o'tkazganliklari haqida gapirdi. Haqli suratda shunday savol tug'iladi: «Sen uch oygina turmush qurgan bo'lsang, ne-ne orzular bilan seni kelin qilgan ota-onaning, shirin ilinjlar bilan senga uylangan yigitning orzularini ro'yobga chiqarish, ko'nglini topish uchun nima qilib ulgurding? Ularni qaysi xizmatlaring bilan rozi qilolding?»

O'zbek xonadonida kelinni qadrlaydilar, avaylaydilar. «Birovning bolasi, ko'nixsin, o'rgansin», deydi. Sen qanday kelin bo'ldingki, ana shu uch oydayoq ko'nixish, ko'ngil ovlash, yangi xonadonga moslashish o'rniga zulm ko'rdim, deya jar solib yuribsan? Axir kelinchaklik davri ko'nixish, mehr qozonish, uyning og'irini yengil qilib, kattalarning va eringning muhabbatiga sazovor bo'lib olish davri emasmi? Bilmaganlaringni o'rganish, tanbeh bersalar yoki tanqid qilsalar, undan to'g'ri xulosa chiqarib, o'zingni oila bekaligiga tayyorlash davri emasmi? Oila baxtini ushlab asrab qolish ko'p

jihatdan kelinlarimizga bog'liq. Ammo eri yoki qaynonasi bilan oriyat yo «huquq» talashadigan, birinchi kunlardan oq qaynonaga aql o'rgata boshlaydigan, pandu nasihatini nazarga ilmaydigan, eng dahshatlisi, behurmat qiladigan kelinlar o'zlari bilmagan holda o'z baxtlariga zomin bo'lib qoladilar. Shirin turmushlari zahar-zaqqumga aylanadi. Keyin afsus-nadomatlar ichra idorama-idora «haqiqat izlashga» tushadilar.

Ko'pincha yosh kelinchaklar zorlanib qolishadi: «Nima qilsak, qaynonalarimizga yoqarkanmiz, ularning ta'na-dashnomlaridan, malomatlaridan qutilarkanmiz?» Hamma uchun birday yoqishning iloji yo'q. Kattalar va yoshlar o'rtasidagi avlodlar ixtilofi tufayli qaynonangiz bilan darrov, osongina til topishib ketishingiz qiyindir. Ammo siz birovning xonadoniga kelin bo'lib, begona bir ayolni ona o'rnida qabul qilmasangiz, u bilan murosa qilish yo'llarini axtarmasangiz, aslo baxtli bo'lolmaysiz. Eringiz sizni qanchalik sevmasin, aylanib-o'rgilmasin, qaynonangizga yoqmas ekansiz, oilangizda farog'at va saodat bo'lmaydi. Buning uchun nima qilish kerak? Qaynona bilan til topishish, unga yoqishning hech qanday yashirin yo'llari, sir-sinoatlari yo'q. Faqat donishmandlarning pandlariga quloq solish, kattalarning nasihatiga ko'nikish, qaynonani ona o'rnida ko'rib u bilan nizo chiqarishdan, ixtilofga borishdan qochish kerak. Keling, manavi o'nta o'gitni yaxshilab eslab, unga rioya qilishga urining:

### KELINLARGA O'N MASLAHAT

1. Qaynonangiz ona bo'lgani, yoshi ulug'ligi, tajribasi kattaligi, sizdan donoroq, tadbirliroq bo'lgani uchun ham uning izzat-hurmatini joyiga qo'ying. O'zingizni aslo katta tutmang, itoatsizlik ko'rsatmang. Chunki onaning o'g'lidagi haqlari bisyor. Bir kishi Abu Dardoning (r.a.) huzuriga kelib: «Onam xotinimni taloq etishimni talab etyapti», dedi. Abu Dardo unga bunday javob qildi: «Rasululloh (s.a.v.): «Ona jannatning o'rtasidagi bir eshik. Xohlasang, o'sha eshikni boy ber, xohlasang, saqlab qol», deb aytganlar».

2. Ro'zg'orning bor-yo'g'iga chidamli, sabrli, qanoatli bo'lishga o'rganing, aytganingiz bo'lmay golsa, janjal ko'tarishni odat qilmang. Payg'ambar alayhissalomning zavjai mutahharalari Oisha onamizning gaplarini eslang: «Muhammad (s.a.v.) xonadonidagilar Madinaga kelgandan to ul zot vafot qilgunlariga qadar ham loaqal uch kecha to'yib bug'doy noni yeyishmagan. Rasululloh xonadonidagilar bir kunda ikki mahal taom yemagandirlar. Biz bir oyda bir marta bo'lsa ham, o'choqqa o't yoqolmas edik, agar ahyonda hadya qilinadigan ozroq go'shtni hisobga olmasak, yeyishimiz nuqul xurmo, ichishimiz suv edi».

3. Ota-onangizga gap tashib borishga, uydagi sirlarni ko'chaga chiqarishga odat qilmang. Bu bilan qudalar o'rtasidagi hurmat-oqibatni barbod qilasiz, turmushingizga sovuqlik tushirib, eringiz xonadoniga xiyonat qilgan bo'lasiz. Alloh taolo Qur'oni karimda «Barcha (kishilarga dilozorlik qilib, chaqimchilik bilan ularning obro'larini to'kib yuradigan) bo'htonchi-g'iybatchiga halokat bo'lg'ay», deydi. Huzayfadan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.): «Chaqimchi jannatga kirmaydi», deganlar.

4. Nima ish qilmoqchi bo'lsangiz, qaynona bilan maslahatlashing, mablag'ingizni qaynona bilan kelishib xarjlang, tejamkor bo'ling. Chunki u ro'zg'orning past-balandini, oila sarfiyotini, qattiq-quruqni sizga qaraganda yaxshiroq biladi. O'zboshimchalik, itoatsizlik, pala-partishlik o'rtadagi muhabbatni barbod qiladi.

5. Tilingizga ehtiyot bo'ling, yolg'on so'zlashga o'rganmang. Kattalarning izzat-nafsigaga tegadigan botil so'zlar bilan tilozorlik qilmang. Chunki Rasululloh (s.a.v.): «Odamlarni yuzlari bilan do'zaxga tashlanishlariga faqat tillari sabab bo'ladi!» deganlar. Bir marta yolg'on gapirish bilan bir umrga ishonchdan chiqib qolishingiz mumkin.

6. Ota-onangizni sog'inib uyingizga yoki biror ma'arakaga bormoqchi bo'lsangiz, avval qaynonangizdan (qaynotangizdan), so'ngra eringizdan ijozat so'rang. Bu bilan kattalarni hurmat qilgan, ularning ko'nglini topgan bo'lasiz. Chunki Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ota-onaga itoat etmoqni namozni vaqtida o'qishdan keyingi Alloh taologa eng mahbub (sevikli) amal, deb

hisoblaganlar.

7. Biror nojo'ya ish qilib qo'ysangiz yoki qaynonangizning biror topshirig'ini bajarmagan bo'lsangiz, darrov uzr so'rashga odatlaning. Xalqimizda «Egilgan boshni qilich kesmaydi», degan naql bor. Kechirim so'rash bilan obro'ingiz tushib, martabangiz pasayib qolmaydi. Aksincha, yanada ardoqliroq, suyuqliroq bo'lasiz.

8. Qaynonaning xizmatidan aslo bo'yin tovlamang. Chunki ko'p hollarda janjal-mojarolar ana shu «qildi-qilmadi»lardan kelib chiqadi. Axir siz yoshsiz, g'ayratingiz joyida, xizmat qilish bilan biror joyingiz kamayib qolmaydi. Bir sahoba Payg'ambar alayhissalomdan «Ey Rasululloh, mening kasalmand onam bor, uni o'zim ovqatlantiraman, suv ichiraman, tahorat qildirib qo'yaman, orqamda opichlab yuraman, haqqini to'la ado qilibmanmi?» deb so'raganida, Rasululloh: «Yo'q, yuzdan birini ado etibsan, xolos», degan ekanlar.

9. Qaynona ko'z o'ngida eringiz bilan aslo apoq-chapoq bo'lib ko'rinmang. O'g'lining sizning pinjingizga kirib ketayotganini sezsa, «Bolam ikkita bo'ldi», deb quvongan ona o'zini kamsitilgan his etadi, bu unga og'ir botadi. Buning «sababchisi» bo'lgan, o'g'lini «og'dirib olgan» kelinini yoqtirmay qoladi.

10. Xonadondagi qaynsingillaringiz, ovsinlaringiz bilan ahil bo'lishga, ularning ko'nglini topishga harakat qiling. Qaynonaga yoqishni o'ylasangiz-u, ammo uning suyuqli qizlariga, sizdan oldin kelib qadrdonlashib qolgan kelinlariga nopisand muomalada bo'lsangiz, maqsadga erisharmikansiz? Payg'ambar alayhissalomning quyidagi hadislar bor: «Odam farzandi uchun namoz, murosasozlik va xushxulqlikdan afzal ish yo'qdir». «Qiziga joni achigan kelinini qarg'aydi», degan maqol ham bor. Baxt va farog'at cho'g'lari ustiga kul tortmay, erimnikida izzat va hurmat ko'ray, hayotim osoyishta o'tsin, desangiz, yuqoridagi ana shu pand-u nasihatlarini quloqqa olib, bugundanoq bajarishga kirishing. Ehtimol, sizdan ko'ngli sovib, boshini qayoqqa urishni bilmay yurgan eringiz uchun baxt-iqbol eshiklarini yana ochib berayotgan bo'larsiz?! Ehtimol, kelindan yolchimadim, deya xafsalasi pir bo'layotgan qaynonangizning qalbida umid shul'alarini uchqunlantirib yuborarsiz?! Alloh taolo qaynona va kelin - ikkovingizning yulduzingizni bir-biringizga issiq ko'rsatsin, qalbingizga mehr-muhabbat, ishonch, oqibat urug'larini sepib, rizqlantirsin!

## IXTILOF ABADIYMI?

Nega qaynona va kelin muammosi ming yillardan buyon insonlarning boshini qotirib kelyapti? Nima uchun xilma-xil davlatlar, butun-butun xalqlar bir-biri bilan til topishib, ahil yashayotgan bir paytda bir xonadondagi ikki ayol o'zaro murosa qilolmaydi, biri ikkinchisining hayotini zaharlaydi? Bu ixtilof abadiymi? Uning ne sabablari, omillari, bahonalari bor? Ana shu ixtilofga barham berib, murosaga kelish mumkinmi?

Odamlarimiz hali bu savollarga to'la javob topishganicha yo'q. Buning sababi - hammamiz oila, nikoh, er-xotin munosabatlari, kattalar va kichiklar borasidagi islomiy haqiqatlardan chekinib ketganmiz. Sharqona axloq-odobdan «eskilik sarqiti», deb voz kechib yuborganmiz. Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilmay qo'yganmiz. Toki axloqimizning, odobimizning azaliy musaffo chashmalaridan suv ichmas ekanmiz, toki oilamizda chinakam munosabatlarga - rahm-shafqat, mehr-oqibat, hurmat-izzat, muhabbat-sadoqat kabi fazilatlarga qaytmas ekanmiz, bu ixtiloflar, janjal-mojarolar davom etaveradi, murosasizlik kuchayaveradi.

Xo'sh, qaynona va kelin o'rtasidagi azaliy mojarolarga, ixtiloflarga asosan nimalar sabab-bahona bo'ladi? Ularni bartaraf etishning, yo'l qo'ymaslikning imkonlari, yo'llari bormi? Keling, endi shular haqida bir gaplashib olaylik.

## MA'NAVIY QASOS

Aytaylik, xonadonga yangi kelin keldi. Uch kun o'tmayoq u o'zini xizmatga uradi. Qaynonaning

ko'nglini olish, qaynotaga yoqish, ikki o'rtada erini xursand qilish uchun subhi sodiqdan yarim tungacha tinmaydi. Og'zidan «labbay», «xo'p bo'ladi», «kechirasiz» tushmaydi. Qaynonasini «oyi-oyi»lab, yengidan kirib yoqasidan chiqadi, o'tqazgani joy topolmaydi. Qaynsingillari, qayninilari haqida og'zidan bol tomib gapiradi. Lekin o'zini ming alfozga solmasin, aylanib-o'rgulmasin, baribir qaynonasiga yoqmaydi. Uning mulozamatini, tili shirinligini ko'rib qaynona bir o'qrayadi: «Ilonning yog'ini yalagan, ayyor-da!» Yelib-yugurishini ko'rib yana xunobi oshadi: «Shapillamay o'l, biram shoshilib urinadiki, xuddi yov quvganday». Xullas, o'tirsa - o'poq, tursa - so'poq, yursayam - yomon, tursayam -yomon. Nima qilish kerak? Kelin bechoraning gunohi nima? Aslo tushunolmaydi. U yoqda er bechora hayron. U-bu desa, onaizorning dili og'riydi. Demasa, bu yoqda aybsiz bir juvon nohaq zulm ko'ryapti.

**VOQEQA.** «Turmush o'rtog'im o'z maishatlari bilan bandlar. Turib-turib jahlim chiqadi. Erkaklarga qanday yaxshi! Ular erkin qush, hech kim bilan hisoblashib o'tirishmaydi. Haftada choyxonada osh. Tanish-bilishlarinikida to'y bo'lib qolsa, ikki-uch kunlab qolib ketaveradilar. Oyiga bir marta «gap» o'ynashadi. Bundan tashqari tez-tez shahar chetiga chiqib, boshqa shaharlarga borib «havo almashtirib» keladilar. Oila-chi? Oila bilan mutlaqo ishlari yo'q. Nima bor-u nima yo'q, kimga nima kerak - xayollariga ham kelmaydi. Ro'zg'orga qaramaydilar. Men va bolalarim o'zimizni o'zimiz boqishga majburmiz. Bir-ikki bor qaynonamlarga hasratimni ochdim. Parvo ham qilmadilar. Qaytanga ahvolimizning tangligidan huzur qilganday ermakladilar: «Qo'yavering, erkak kishi-da! Dadangiz ham yoshliklarida shunaqa edilar, uyga birorta cho'p ko'tarib kelmasdilar. Ro'zg'orning butun tashvishi xotin boshimda mening zimmamda edi. Ayol kishi hamma narsaga chidashi kerak. Bir kun aqli kirib quyulib qolar!» O'ttizdan o'tgan kap-katta kishi qachon quyularkinlar? Kun ora mast-alast kelib o'ringa tappa tashlaydilar, hatto bolalarni ko'rishga, ular bilan gaplashishga ham toqatlari yo'q. Masalaning nima ekanini tushunib ham ko'rmay, qaynonamning «aniq ma'lumotlari» asosida kunda janjal ko'taradilar, nohaq haqoratlaydilar. Ba'zida kaltaklaydilar. Tinchligim yo'qolib hayotdan ham to'yib ketdim».

Bu bir bechora kelinning gazetaga yozgan arzi-dodlari. Uning aybi nima? Erning, qaynonaning zulmiga «miq» demay chidaganimi? O'g'lining xurmacha qiliqlaridan nega qaynona xijolat bo'lmaydi, keliniga rahm-shafqat ko'rsatib tasalli bermaydi? O'g'lini tergash, yaxshi bo'lishga undash o'rniga xotinini xo'rlashga loqayd tomoshabin bo'lib turadi, ich-ichdan pinhona huzurlanadi.

Bu holni oddiygina qilib «ma'naviy qasos», deb atash mumkin. Bu nimasi dersiz? Aftidan shunday qaynonalar yangi kelin bo'lib tushganlarida yo zolim erlarining yoxud toshbag'ir qaynonalarining jabrsitamlarini xo'p tortishgan. Xizmat va hurmat evaziga ulardan haqorat va nadomat ko'rishgan. Alam va sitamlarni chorasizlikdan ichga yutishavergan. Yuraklari zardobga to'lgan, dillari xun bo'zlagan. Ammo biror kimsa ularning yonini olmagan, tasalli bermagan, ko'ngil ko'tarmagan. Mana endi uning o'zi qaynona bo'lib, yangi kelinga «hukmronlik» qilish imkoniyati tug'ilganida ana shu alam va armonlar «isyon» ko'targan, tashqariga yorib chiqqan.

Bunday qaynonalarning o'g'ilning o'z xotiniga shirin muomalasini ko'rib bir alami o'n bo'ladi: «Axir erimning qamchisidan qon tomardi, kelinligimda boshimga ne azoblarni solmagandi. Bu so'tak bo'lsa, xotinchasini yer-u ko'kka ishonmaydi, boshidan suv o'girib ichadi. Bunga yo'l qo'yib bo'libman, chuchvarani xom sanabsanlar!» Keyin kelinning shinam, qulay oshxonada xotirjam urinib yurganini ko'rib yana alami ortadi: «Tappi tutatib, choydosh qaynatib rosa qiynalganmiz. Suvni uch chaqirim naridan tashib kelardik. Bular bo'lsa, tayyor krandan suv olishga erinadi, kir yuv, desang, qancha noz-u firoq. O'lib bo'ldim bu dangasa kelinning dastidan».

Hasrat-nadomatlarning cheki yo'q. Go'yoki qaynonaning kelinlikda chekkan mashaqqatlari va azoblariga ana shu hali ona suti og'zidan ketmagan kelini aybdorday. Bunday qaynonalar «Alloh taqdirimni shunday yaratgan, shukr qilayin, hozirgi yoshlarning baxti bor ekan, biz ko'rmagan kunlarni ko'ryapti», deb qismatiga rozi bo'lmaydi, taqdiriga ko'nmaydi. Vaholanki, Payg'ambar aleyhissalomdan «Ona qornidan sizga nima taqdir qilingan bo'lsa, o'sha bo'ladi», degan hadis bor.

## BOYLIKKA UCHMANG

Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat qilingan bir hadisi sharifda keltirilishicha, «Kelin tanlash vaqtida to'rt narsaga albatta qiziqiladi: qizning moliga, husnu jamoliga, nasab-hasabiga (kelib-chiqishiga) va to'rtinchisi - dinu diyonatiga. Shu oxirgisi - dindorini tanlagin». Hadisdan ko'rinib turibdiki, oila qurmoqchi, kelin olmoqchi bo'lganlar eng avvalo uning iymonli, e'tiqodli, halol-pok, hayoli va iboli, sadoqatlisini tanlashlari kerak. Ammo ko'pincha janobi Payg'ambarimizning ko'rsatmalari unutilib qo'yiladi. Ba'zilar kelin xonadonining mol-dunyosiga uchadi. Bilishmaydiki, boylik - vaqtincha narsa, bugun bor, ertaga yo'q bo'lishi mumkin. Ota-onasining naslu nasabi ham kelinning uyida qoladi, yangi joyiga ko'chmaydi. Husnu jamol ham boqiy emas, yillar uni ham yo'qotadi. Demak, kelin bilan keladigan narsa - uning dini, iymoni, odob-axloqi, hayosi! Ana shunday kelin olgan odam, inshaalloh, mamnun bo'ladi, oilasida totuvlik, farog'at hukm suradi. Bizlar nima qilyapmiz? Biror joyga sovchilikka borsak, eng avvalo hovli-joyining shohonaligiga e'tibor beramiz. Qudalarning boyligini surishtiramiz. «Qiziga qaysi mamlakatning mebel-jihozlarini sep qilarkin?» deya bosh qotiramiz. «O'g'limizga mashina mindirib qo'yarmikin?» deb orzulaymiz. Qizning xulq-atvori qanday, dinu diyonati, odob-hayosi bormi - bu haqda so'rab-surishtirishga vaqt topolmaymiz. Chunki miyamiz yuqoridagi hisob-kitoblar bilan band. Ko'zimizni qudaning uyidagi jihozlarning jim-jimasi to'sib qo'yan. Quloqlarimizda kuyovga (ya'ni, o'g'limizga) qilinadigan sovg'alarning ro'yxati jaranglaydi. Ana shunday xonadondan ne-ne umidlar bilan kelinni ham tushirib kelasiz. Ammo tezda shirin orzularingiz sarob chiqib qolganini anglaysiz. Boyligiga uchib bir dardi bedavoga muhtalo bo'lganingizni tushunib yetasiz. Keliningizning ro'zg'or yumushlariga mutlaqo uquvi yo'q ekan. Pishirgan ovqatining huzurini mahalla kuchuklari va mushuklari ko'ryapti. Kir yuvish mashinasining nosozligi bahona bu ish ham qaynona zimmasida. Uy tutishni gapirmasa ham bo'ladi - xonasiga kirib boshingiz aylanadi. O'rgatmoqchi bo'lsangiz, g'alvaga qolasiz - «Voy-dod, qaynonam tergap menga kun bermayapti». Indamay o'zim qilaveray, desangiz, yana janjal - «Voy-dod, qaynonam menga hech narsani ishonmaydi, hatto oshxonaga ham yo'latmaydi». Nima qilishga hayronsiz. «Ho'l balo», «yorilmagan yara», deganlari shu bo'lsa kerak-da!

Bu ham mayli-ya, katta oxurdan «em» yeb o'rgangan kelin uncha-muncha narsani nazarga ilmaydi, kekkayadi. O'g'lingiz keltirgan ko'ylakni «Shu ham mato bo'ldimi?» deb bir chetga otadi. Bir haftalik go'shtni qozonga tashlayotganini ko'rib «Qizim, sal tejamli bo'laylik, qaynotangiz va eringizning topishi o'zingizga ma'lum», deb gap ochishingiz bilan bobillab beradi: «Voy, muncha qurumsoq bo'lmasalaring, uyimizda qozonga tushadiganining yarmini solyapman-ku!» Xullas, oiladagi hamma narsani pul bilan o'lchaydi, o'z xonadonidagi tartiblar bilan tenglashtiradi. Ko'nglidagi ish bo'lmasa, janjal-g'avg'oga zo'r beradi.

**RIVOYAT.** Bir vaqtlar Bag'dodda yuz bergan kuchli yong'inda bir boyning hamma topgani, mol-mulki yonib kul bo'ldi. Butun mol-dunyosidan bir zumda ajrab qolgan boy Bag'dod ko'chalarida faryodu fig'on chekib yig'lab yuribdi. Uning holatini ko'rgan bir oqil kishi uni to'xtatibdi: «Kap-katta odam yig'lab yurgani uyalmaysanmi?» Boy: «Axir barcha mol-mulkim bir pasda yonib tamom bo'ldi, men yig'lamay, kim yig'lasin!» debdi. Ko'pni ko'rgan oqil kishi so'rabdi: «Uydagi umr yo'ldoshing yaxshimi, ko'nglingdagi ayolmi?» Uyi yongan kishi javob qaytaribdi: «Ha, bu jihatdan baxtim bor. Allohga shukrki, farosatli, soliha, epli xotinim bor!» Shunda haligi oqil kishi xitob qilibdi: «U holda nega yig'laysan, nodon?! Sen-ku ozgina harakat qilsang, yo'qotgan boyligingni qayta toparsan, men kabi bir aqli kalta, tili uzun, jag'i tinmas, befarosat xotinga uylangin, ana o'shanda bilasan haqiqiy falokat nimaligini!»

Ha, muhtaram onaxonlar, kelin izlab yurganingizda uni boy-badavlat xonadondan topsam, o'g'lim baxtli bo'ladi, degan xayolga bormang. Boylik, mol-davlatning o'zi hech qachon baxt-iqbol eshiklarini ochib berolmaydi. Keliningiz oqila, odobli, saranjom-sarishta, yaxshi fazilatli bo'lsagina, u bilan xonadoningizga xotirjamlik, rohat-farog'at kirib keladi.

## KAMBAG'ALLIK AYB EMAS!

Goho hayotda yuqoridagi voqealarning teskarisi ham bo'lib turadi. Siz ancha o'zingizga to'q, to'rt yoningiz tugal xonadonning bekasisiz. Ammo kelinni olgan joyingiz ro'zma-ro'z kun ko'radigan, ro'zg'orini qo'l uchida tebratib yurgan oila chiqib qoldi. Odatda bunday xonadonlardan olingan qizlar esli-hushli, oilam, erim, ro'zg'orim, deb jon kuydiradigan, borgan joyiga toshday cho'kadigan, xizmatni do'ndirib, yo'qni yo'ndirib, barchaning ko'nglini oladigan epchil va uddaburon kelinlarga aylanishadi. Faqat ularning kamxarjligini, nochorligini betiga solmasangiz, arzimas mayda-chuydalar deb izzat-nafsini koyitmasangiz, har bir ishda ikki xonadon o'rtasidagi farqni sezdirmaslikka urinsangiz, inshaalloh, uning oiladagilarga bo'lgan mehr-muhabbati ortaveradi. Qudalaringiz yanada yaqinlashib borishaveradi. Xonadoningizni urish-janjal, bahs-mojaro tark etadi.

**RIVOYAT.** Hazrati Umar (r.a.) Madina ko'chalarini aylanib yurar ekan, bir xonadonga yaqinlashganda ayol kishining shunday deganini eshitib qolibdi: «Qizim, ozroq suv olib kelsang, sutga qo'shar edik, bugun sut ko'zimga oz ko'rinyapti». Qizi: «Voy onajon, nimalar deyapsiz, amiral-mo'minin sutga suv qo'shmang, deb buyurgan-ku!» - debdi. Onasi aytibdi: «Qizim, bilasanki, tirikchiligimiz sut bilan o'tadi, uni ko'paytirsak yaxshi bo'ladi. Men bir bevaman, boshqa daromadimiz yo'q». Qizi: «Gapingizni xalifa eshitsa, nima bo'ladi?» debdi taajjublanib. «Qizim, kechasi bu vaqtda xalifa uxlab yotgan bo'ladi, suv qo'shganimizni qanday ko'radi?» deydi onasi. Shunda dono qiz onani shu so'zlar bilan gunohdan qaytaradi: «Onajon, bugun sizga bir narsa bo'libdi, agar siz aytgan hiylani xalifa ko'rmasa, hamma narsani biluvchi Alloh ko'rib, bilib turibdi-ku! Nahot siz gunohga yo'l qo'ysangiz?!»

Hazrati Umar bu suhbatni oxirigacha eshitdi. Ertasiga ertalab o'sha xonadonga borib Allohdan qo'rquvchi, go'zal axloqli, yaxshi fazilatli, iffatli va tarbiyali qizni o'g'liga so'radi. Butun musulmon olamining amiri bo'lmish hazrati Umar o'g'lini faqir qizga uylantirdi. O'sha muborak kelindan shunday farzandlar dunyoga keldiki, ulardan biri bobosi kabi adolatni sevuvchi, Allohdan qo'rqadigan, tarixda «Ikkinchi Umar» nomini olgan Umar ibn Abdul Aziz edi.

Ko'rdingizmi, kelinning yaxshi chiqishi, avlodlaringizning risoladagi insonlar bo'lib yetishuvi mol-dunyo, boylik, allaqanday latta-puttalar bilan o'lchanmas ekan. Ammo hozirgi kunimizga nazar tashlasak, buning g'irt aksini ko'ryapmiz. Hali xonadoningizga kelinni tushirib kelmay turib, qudalaringizning qiziga qilgan sep-sidirg'asi o'rtaga tashlanadi. Mahalla-ko'y, qavmi-qarindosh hisob-kitobga tushib ketadi: «Bu ko'ylagi arzon matoh ekan». Birovi hasaddan, birovi ko'rolmaslikdan, birovi tushunmaganlikdan, yana boshqasi sizga dushanlikdan ichingizga o't yoqadi, gij-gijlaydi: «Voy, past bo'lmay o'lsin, kuyovga qilgan sarposini qarang», «Nima balo, mebelni arzon mollar do'konidan olganmi?», «Sizni hurmat qilmas ekan-da, manavi ko'ylakning ahvolini ko'ring!» Shunaqa gaplar bilan to'y ham tatimaydi, kelindan ham ichingiz chiqmaydi. Bu kayfiyat tez orada o'rtadagi munosabatlarga ham ko'chadi. Qildan qiyiq qidirib keliningizga zahringizni socha boshlaysiz, uyidagilarni yomonlaysiz. Oqibatda mojarog'ishava, hammaning dili xufton.

Qizining tinchimayotganidan tashvishga tushgan qudalaringiz endi tipirchilab qolishadi. Hamma narsani o'z o'lchovlari, o'z dunyoqarashlari, o'z idroklari bilan baholab yurgan qudalar sizning tushunchalaringiz boshqacha ekanini tushunib yetishgach, endi o'sha «boy berilgan» kemptikning o'rnini to'ldirish harakatiga tushib qolishadi. Zir yugurib, huzur-halovatdan kechib, mashg'ulotlarini tashlab, Alloh buyurgan ibodatlarini ham esdan chiqarib, pul topishga kirishib ketishadi. Pul topisholmasa, qarz-havola qilib bo'lsayam, qizlariga yangi sarpolar qilishga, xorijiy mebel topishga, hayit-bayramlarda qo'sha-qo'sha savat-tog'oralar to'ldirishga unnashadi. Biror bahona topib turli «yo'qlov»larni tashkil etishadi. Kechagina «Qiz baxti molda emas», deb yurgan bechoralar endi sizning nog'orangizga o'ynashga, siz o'rgatgan ashulani aytishga majbur. Shunday qilmasa, qizining turmushi tatimaydi, boshi g'avg'odan bo'shamaydi, oromlari yo'qoladi.

Vaholanki, Islom dinimiz bunday yomon ilatlarni qoralaydi. Har bir ishda insof, adolat bo'lishini talab etgan. Faqirlikni, qo'li qisqalikni ayb sanamagan.

## MOLPARASTLIK ILLATI

Ota-onalar qizlarini turmushga uzatishga tayyorgarlik ko'rar ekanlar, avvalo unga sep yig'ishadi. Qo'sha-qo'sha ko'rpa-to'shaklar, qimmatbaho xorijiy mebel taxlamlari, tillo taqinchoqlar, bir necha sidirg'a kiyim-kechaklar, xullas, har qanday baquvvat oila boshlig'ining belini sindirib, yelkasini qayishtirib yuboradigan sarf-xarajatlar kerak. Biz kelin-kuyovning yangi ro'zg'orini tiklab olish uchun zarur bo'lgan bir sidirg'a kiyim-kechak, eng kerakli ro'zg'or buyumlari haqida so'z yuritayotganimiz yo'q, bu ishda «men sendan o'taman» qabilida isrofgarchilikka yo'l qo'yish, kerak-nokerak, ortiqcha buyumlarni sotib olish uchun qancha vaqt oilani hamma narsadan qantarish, nomchiqarga, dabdabavozlikka intilish maqbul emasligini aytmoqchimiz. Vaholanki, ana shu qo'sha-qo'sha anjom-buyumlar hech qachon qizingizni baxtli qilolmaydi, oilada paydo bo'ladigan kelishmovchilik, ixtiloflarning oldini ololmaydi. Aksincha, mol-davlat ko'pincha yoshlar orasini buzadi, ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. Ko'pincha, hatto to'y boshlanmasdan turib «manavi narsani qilmabdi» yoki «oz qilibdi», «sifatsizini qo'yibdi», degan bema'ni da'volar bilan qancha ko'ngilxiraliklar bo'lganiga, qudalarning yovlashib qolganiga, eng achinarlisi to'ylar buzilib, ikki yoshning baxt-iqboliga zomin bo'linganiga nima deysiz?! Axir kelin-kuyovning ahilligi, bir-biriga muhabbati, oqibati qaysi zamonda, qaysi yurtda mol-mulk, boylikka bog'liq bo'lgan?

**RIVOYAT.** Rasulullohning (s.a.v.) muborak odatlaridan biri - har gal safardan qaytganlarida eng sevikli qizlari hazrati Fotimatuz-Zahroni ko'rgani, hol-ahvol so'ragani borganlar. Bir kuni ana shunday safardan qaytganlarida hazrati Fotimani ko'rgani uyiga kelibdilar. Qarasalar, qizlari o'z bolalariga kumush uzuklar, bilaguzuklar taqib, uyining devorlariga chiroyli pardalar osib qo'yibdi. Shunda janobi Payg'ambarimiz uyda to'xtamay qaytib ketibdilar. Fotima onamiz muhtaram otalarining nima sababdan ketib qolganlarini tushunibdilar. Darhol pardalarni, bezaklarni soddirib, pulini kambag'allarga sadaqa qilibdilar. Demak, Payg'ambar alayhissalomning ummati bo'lgan har bir musulmon ana shundan ibrat olishi, mol-dunyo vasvasasiga uchmasligi, molparastlik orqasidan farzandlarining turmushiga og'u solmasligi kerak. O'tkinchi dunyo istaklari, yaltiroq kiyimlar, shohona uy-joylar, anvoyi jihozlar, oltin zanjirlar sevgi alomati emas, bal'aks farzandlarni ma'naviy jihatdan o'ldirish demakdir. Axir hazrati Payg'ambarimiz sevikli qizlariga qarata: «Yo Fotima, bu ipaklarni kiyganlar, oltinlarni taqqanlar oxiratni ko'rmaydilar», deganlarini bir eslang! Ayniqsa, hozirgi bozor sharoitida molparastlik, boylikka ruju qo'yish, kimo'zarga dunyosini ko'z-ko'z qilish xalqimizga qimmatga tushyapti. Qancha oilalar arzimasi matohlar, deb boshlangan janjallardan parokanda bo'lyapti. Qancha kelinlarimiz boshida malomat va zulm qamchilari o'ynayapti. Qanchalab ota-onalarning bir maromdagi hayotlari izdan chiqyapti, kuyovlarning dunyosini qorong'u qilyapti. Nahot ana shunday kulfatlarga sabab bo'luvchi molparastlik balosidan qutilish, islomiy talablarga ko'ra har ishda qanoatli, kamtar bo'lish shunchalik mushkul ish bo'lsa?!

**VOQEA.** Yaqinda tahririyatlarning biriga 20-22 yoshlardagi bir juvon ko'z yoshi qilib kelib qoldi. Nima voqea bo'lganini surishtirishdi. Ma'lum bo'lishicha, bu qiz bundan uch yil muqaddam Akramjon ismli yigitga turmushga uzatilibdi. To'ydan keyin bilsa, eri bundan avval ham uylangan, keyin onasining zug'umi tufayli va oiladagi janjallardan bezor bo'lib xotinini bitta bolasi bilan uydan haydagan ekan. Eridan ajralish sababini so'rasa, «Ja boy xonadon edi, birortamizni mensimay qo'ydi. G'iring, desak, dadasi o'g'illarini yetaklab kelib do'q qiladi. Oxiri onam «Qo'ysang ham, qo'lasan, qo'ymasang ham», deb haydatib yubordilar. ZAGS ham qirgildi, aliment to'layapman. Mana seni topib uylantirib ham qo'yidilar», debdi. Uch yilcha eri bilan juda ahil yashashibdi, bir o'g'illi bo'lishibdi. Kichik ukaning uylatilishi bahonasida yarim yil muqaddam ijaraga uy olib chiqib ham ketishibdi. Bu yoqda bozor-bozor, degan gaplar chiqib, eri tijorat bilan haftalab boshqa shaharlarga ketarkan. Yaqinda erdan darak bo'lavermagach, qaynonasinikiga boribdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, eri eski hovlida avvalgi xotini bilan yarashib olib bemalol yashayotganmish. Hayron bo'lib buning sababini qaynonasidan so'rasa, «O'g'lim sizga uylangandan buyon kosasi oqarmadi. Bunaqa kambag'al ekanliklaringni bilganimizda kelin ham qilmasdik. Manavinaqa turmush og'irlashib ketdi, avvalgi erkak qudamiz

o'g'limni yonlariga olib qo'llab turmoqchi bo'ldilar», deb beparvo turaveribdi. «Endi men qayga boraman, dardimni kimga aytaman?» deydi juvon ko'z yoshlarini duv to'kib. Darhaqiqat, kimga? Hamma narsani pul bilan o'lchaydigan qaynonagami? O'g'li va xotinini besh kunlik dunyo matohiga almashtirib yuborgan bemehr ergami? Yoki so'rab-surishtirmay yoshgina qizini shunday molparast kishilarga ishonib berib yuborgan ota-onagami? Kimga?! Ilgari ota-onalar yangi turmush qurgan farzandlarining ro'zg'orini ajratishar ekan, bir sidra uy-ro'zg'or anjom-asboblari, un, gurunch, yog' kabi masalliqalar bilan ta'minlashgan. Shu tariqa yosh oila o'zini tiklab olgan, sarmoyasiga baraka kirgan. Hozirda-chi? Ota-onalar bolalariga qimmatbaho mebellar, hatto mashinalar sovg'a qilishyapti, shohona uylar qurib berishyapti. Ammo ro'zg'or tebratish, mablag'ni tasarruf etish, qizlarga uy tutish, ovqat pishirish, non yopish, bichish-tikish kabi eng zarur yumushlarni o'rgatishmayapti. Oqibatda yosh kelin-kuyov turmushning arziyas muammolari oldida dovdirab, san-manga borishyapti, hatto ajralib ketishyapti. Hayit, bayram arafalarida qudanikiga «Hayit yo'qlov» jo'natishdagi isroflar, kimo'zarga bellashuvlar, bir-biriga solishtirib ko'rib chiqayotgan g'avg'o-dilxiraliklar, «Qizim tinch o'tirsa bo'ldi», deb bor-budini sovurib, qarzlarga botib qilingan yo'qlovlar qizga hech qachon baxt keltirmasligiga tushunib yetish va bulardan voz kechish payti kelmadimikan?

## VAYRON QASR

Xonadoningizga kelin keldi. Balog'atga yetgan, ota-onasiga ardoqli, suyukli bir qizning o'z oshyonini ixtiyoriy tark etib, sizning uyingizda yashay boshlashga nima majbur qildi? Bundan murod - u sizning o'g'lingiz bilan turmush, degan ulkan qasrni birga qurmoqchi, hayot davomiyligini ta'minlamoqchi. Bu Allohning amri, Rasulullohning ko'rsatmalariga bo'ysungan musulima ayolning fidoyiligi, sadoqati. U er oldidagi burchlarini bajarmoq uchun eri va yaqinlarining xizmatiga hoziru nozir. Bu yo'lda har qanday qiyinchilik va sinovlarga chidaydi. Ana shu er tufayli qaynona va qaynotani o'z ota-onasidan a'loroq sevadi va hurmat qiladi. Eriga ehtiromi sababidan uning ini-singillarini izzat qiladi. Bu uning mazlumaligidan yoki tili qisiqligidan emas, balki oilaga, eriga ishq va sadoqatidandir. Er bo'lmasa, uning uchun bu xonadon g'amxonaga, uning ota-onasi-yu yaqinlari shunchaki hamxonaga aylanadi. Er bo'lmasa, unga turmushning qizig'i qolmaydi, hayotning ma'nisi ketadi. Ammo ayrim xonadonlarda qaynonalar to'ydan keyin o'g'illarini kelindan qizg'anadilar. To'g'ri, ularning ahvolini tushunish kerak. Kechagina onasini o'tqazgani joy topolmayotgan, mehribonlik ko'rsatayotgan o'g'il bugun boshqa bir ayolni ardoqlay boshladi. Demak, mehr ikkiga bo'linadi. Bu esa qaynonaning izzat-nafsigaga tegadi, o'zini kamsitilgan his etadi. Buni anglagan ayrim hushyor yigitlar onalari huzurida xotinga nisbatan sal «qirovida» turishadi. Muomalada ko'pda ro'yxushlik ko'rsatishmaydi. Onalariga aslo xotinlarini, uning uyidagilarni maqtashmaydi. Aksincha, kamsitib turishga harakat qilishadi. Bu ahvolni ko'rgan ona kelini tomonga o'tib oladi. Sal ko'ngli bo'shroqlari xotiniga «qo'pollik» qilayotgan o'g'illarini tergashga, tanbeh berishga kirishadilar. Oilasi buzilib ketmasin, deb ko'z-quloq bo'lib turishadi. Ammo ba'zi yigitlarimiz bor: birinchi kunlardan ota-ona oldida xotinga alohida iltifot, izzat-ikrom ko'rsata boshlaydilar. To'g'ri, uni sevasan, u sening jufti haloling. Hurmatini joyiga qo'yib, aybini yashirib, xulqini oshirib ko'rsatish shart. Lekin bu ish, ayniqsa, qaynona huzurida bo'lmasligi kerak. Ayrim onalarning o'z o'g'illarini kelindan qizg'anishi ular tabiatiga xos narsa ekanini bir dam ham esdan chiqarmaslik lozim. Shuning uchun, muhtaram kuyovlar, ona va xotin o'rtasida munosabatlar izdan chiqmasligi uchun siz biroz «ikkiyuzlamachiroq» bo'lishingiz, erkaklik rolingizni qiyomiga yetkazib o'ynashingiz kerak. Xotiningizni mayda-chuyda ishlarda ham onangizdan maslahat so'rashga, unga doimo itoatda bo'lishga o'rgating. Hech qachon kattalar huzurida unga alohida e'tibor, iltifot ko'rsatmang. Sal «viqor bilan» turing. Biror sovg'a hadya qilmoqchi bo'lsangiz ham, uni o'ziga topshirmay, onangizga bering. «Shuni keliningizga atab oluvdim, xohlasangiz, berarsiz, bo'lmasa, o'zingizga qoldirarsiz», deb bemalol aytavering. Har bir qaynona ana shu gapdan keyin sovg'ani o'zi olmay, keliniga topshiradi. Chunki kelin oldida tili qisilishini xohlamaydi.

**VOQEA.** Hidoyat xola o'g'li Erkinni otasiz katta qildi. Yolg'iz o'g'il bo'lgani uchun yer-u ko'kka ishonmasdi. Ikki qizini allaqachon uzatib qutilgan. O'zi yemay, o'g'liga ilindi, kiyim-kechakda o'ksitmasdi. Sut zavodida oddiy ishchi bo'lishiga qaramay, ko'chadagi tengdoshlari ichida unga birinchi bo'lib velosiped olib berdi. Maktabni tugatishi bilanoq yugu-yugur qilib politexnika institutiga joylab qo'ydi. Ikkinchi kursda bir hamkasbining suluvgina, sarvqomat qiziga uylantirib ham qo'ydi. To'ydan keyin ikki-uch oy o'tmayoq Hidoyat xola kelin olib ko'ngli to'lmay, hasratini kimga ochishni bilmay, boshi qotib qoldi. Sababi kelin hali boshi kirib kelmay, xonadonda o'z tartiblarini o'rnatishga kirishdi. Birinchi kunlari yoshlar onalari bilan choy ichishar, kechqurunlari allamahalgacha o'tgan-ketganlardan gaplashib, televizor ko'rib o'tirishardi. Oradan ko'p o'tmay, kelin-kuyov alohida nonushtaga o'tirishni boshladi. Kechqurun horib ishdan qaytgan xolaning oldiga kelin «do'q» etkazib kosadagi ovqatni qo'yib chiqib ketardi. Televizor ham ularning xonasiga «ko'chdi». Yoshlar qo'ltiqdash hali kinoga, hali mehmondorchilikka jo'nashadi, hali shahar tashqarisiga borib hordiq chiqarishadi. Bu mustaqillik emish, yoshlar mustaqil yashashi kerakmish. Xola avvaliga chidadi, «Kel, insofga kelib qolar», deb o'zini ovutdi. «Hech bo'lmasa, o'g'lim onasini unutib yubormas», deb umidvor bo'ldi. Qayoqda deysiz? Kundan-kun battar, deganlaridek ahvol yaxshi tomonga o'zgarmasdi. Shunda Hidoyat xolaning bardoshi tugab, to'nini teskari kiyib oldi. Kelinni yomon ko'rib qoldi. Har bir ishdan nuqs topdi, uydan bezdirish harakatiga tushib qoldi. Ishning pachavasi chiqqanini ko'rib kelin shoshib qoldi. O'g'li tavbatazarru qilib onasining dilini yumshatmoqchi bo'ldi. Mahalla-ko'y, qudalar o'rtaga tushishdi. Yo'q, xola aslo yon bermadi. Qanchalik og'ir bo'lmasin, o'g'lini o'ziga ag'darib olgan kelinni haydatib tinchidi. Ko'rdingizmi, bechora qaynonaning ko'ziga ne-ne umidlar bilan olingan kelin ham, qancha sarfu xarajatlar bilan qilingan to'y ham, o'zining mahalla-ko'ydagi obro'si-yu, o'g'lining baxt-saodati ham ko'rinmasdi. Chunki u eng katta boyligi - ko'z qorachig'iday avaylab voyaga yetkazgan o'g'lidan ajrab qolganini tushunib yetgandi. Kelin bola ona uchun yolg'iz o'g'il hamma narsadan aziz, ardoqli ekanini anglolmay, katta xatoga yo'l qo'ygandi. Bu xato esa turmush, deya atalmish farog'at qasrini vayron qilib tashladi. Vayronalarda esa chinakam baxt hech qachon oshyon qurmaydi.

## RASHK BALOSI

Qaynotalarni oilada kelinlarning himoyachisi, yosh oilaning posboni, deyish mumkin. Sababi nikoh to'yining qiz tanlash, sep-sidirg'a tomonlari ayol zimmasiga tushsa, to'yning asosiy xarajatlari, uni uyushtirish, kelin-kuyovni uy va jihozlar, ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlash oilaning xojasi hisoblangan erkakning chekiga tushadi. Shuning uchun ham u oilaning mustahkam, kelin-kuyovning ahil, totuv bo'lishi uchun qayg'uradi. Shu maqsadda ko'pincha oilaviy mojaralarda kelinni himoya qilishga urinadi. Qaynona va kelin mojarolarida adolat tarozisi bilan ish ko'radi. Erlarning bu «qilig'i» ko'pincha qaynonalarga yoqmaydi. O'ttiz yil, qirq yil birga yashagan, hamma ishda sirdosh va hamkor bo'lgan kishining birdaniga kecha kelgan kelin tomonga o'tib olishi, g'ishavalarda ko'proq uning yonini olishi, gohida esa kelinni himoya qilmoq uchun o'z xotiniga qattiq-quruq tegishi o'z-o'zidan qaynonaning izzat-nafsiga tegadi. O'zini xo'rlangan his etadi, himoyasiz qolganday tuyuladi. U buning sabablarini yuqoridagi holatlardan izlamaydi-yu, boshqa «dalillar»ni axtarishga tushadi. Bu «dalillar»ning tagi puch bo'lsa ham, qaynonalar unga mahkam yopishib olishadi. «Yonini olyaptimi, demak, unda ko'ngli bor» yoki «Shuncha yil turmush qurib, bir-birimizga sirdosh bo'lib, qarigan chog'imda yoqmay qolibman-da, shu zumrasha mendan aziz bo'пти-da» yoxud «Bir balosi borki, keliniga shirinso'z bo'lib qoldi, menga biror marta bunaqa mehribonlik ko'rsatmagandi» va shunga o'xshash «tahlil»lar, shubhalar, g'ashliklar ularning qalbini kemirib, nihoyat «barcha kulfatlarda kelin aybdor», degan xulosa chiqarishga olib keladi.

**VOQEA.** Mahallamizdan uzatilgan Mashkura ismli qizning turmushi yarim yilga bormay buzilib ketdi. Buning sababini so'rganlarga sho'rlik ota-ona nima deb javob qaytarishga hayron. Ularning yalinib-yolvorishlari ham, mahalladagi baobro' odamlarning o'rtaga tushishlari ham - hech narsa yordam bermadi. Oxiri kelinning ko'ch-ko'ronini kuyovnikidan yig'ishtirib kelishdi. Mashkuraning o'zi

ham hayron, «Oramizdan hech gap o'tmagandi, Anvar akam bilan juda ahil edik, ota-onalarini ham juda hurmat qilardim», deb yig'larmish, xolos. Keyin surishtirishsa, qaynona kelinini yoqtirmay qolibdi. Oilaning erkaklariga «Yo shu kelin turadi bu uyda, yo men», deb keskin shart qo'yibdi. Kuyov bechora «Kelingizning aybi nima o'zi?» deb so'rab baloga qolibdi. «Yo xotinni qo'lasan, yo duoibad qilaman, oq qilaman, bir umr rozi bo'lmayman», debdi ona. Eri ham hayronmish. «Hech bo'lmasa, nima gap o'tganini men bilib qolay, axir qudalarimizga biror bahona aytish kerak-ku!» deb so'rasa, «Qo'li egri, deng, yolg'onchi, deng, xullas, biror gap toping. Agar u qoladigan bo'lsa, unda men ketaman», deb qo'rqitibdi. Xullas, oila buzilib ketdi, shiringina turmushga og'u tomidi. Bu mashmashalarning hammasiga qaynota sho'rlik o'zi bilmagan holda «aybdor» bo'lib qolgan ekan. Xushro'ygina, donogina, epchilgina kelinni u otalarcha mehr bilan yaxshi ko'rgan, «siz-siz»lab erkalagan, yumushi ko'payib ketsa, xotinini turg'izgan. «Axir birovning bolasi, yangi kelin, ja zulm qilib yubormaylik, sen ham munday qarashvor», deb yonini olgan. Oila davrasida «Kelinim zo'r-da, saranjom-sarishta, imoga dik etib yuguradi», deb maqtagan. Bularning hammasi toshni teshgan tomchi yanglig' asta-sekin qaynonaning asabini parmalay boshlagan. Avval shunchaki g'ashi kelgan. Keyinchalik hasad o'ti, rashk balosi chirmay boshlagan. Bu og'riqlar chidab bo'lmas holatga yetishi bilan hech bir gunohsiz yoshgina kelin uning yovuz dushmaniga aylangan. Ikki yovning bir joyda turishi mumkin emas. Har jihatdan himoyasiz, sodda juvon shunday qilib rashk balosining qurboni bo'lgan. Qaynona erini kelinidan qizg'anib nima qilib bo'lsa-da, uni yo'qotish payiga tushgan va bunga erishgan ham. Demak, yuqoridagi voqeadan qaynotalar ham, qaynonalar ham, kelin-kuyovlar ham baravariga to'g'ri xulosa chiqarib olishlari kerak bo'ladi.

### HAMMA QIZLAR YAXSHI-YU...

**VOQEA.** Nazokat oilada yolg'iz qiz. Dadasi Abdusamad aka qurilish trestida bosh hisobchi, onasi Manzura opa savdo uyida iqtisodchi. Gohida Abdusamad aka xotini bilan g'ijillashib qolsa, buning sababchisi albatta Nazokat bo'ladi. - Qizingni juda erkalatib yuboryapsan, hali bir joyga borsa, yuzimizni yerga qaratadi, - deydi dadasi kuyunib. - Sizning ishingiz bo'lmasin. Yolg'iz qizimni xo'rlatib qo'ymasman. To'yigacha uch-to'rt kun o'ynab olsin, - deb ovutadi onasi. Baxtini qarangki, Nazokat Umida xola degan tul ayolning yakka-yu yolg'iz o'g'li Abrorga turmushga chiqdi. Qaynonasi uch bolasini yerga qo'ygani uchun «Bolam ikkita bo'ldi», deb Nazokatni yer-u ko'kka ishonmas, Abror bo'lsa, shunday qizga ro'para bo'lgani uchun taqdiriga shukrona aytardi. Qaynona kelini bilan o'g'liga ko'z tegmasin, deya tinmay isiriq tutatardi. Kelin-kuyov ishga birga ketib, birga qaytishadi. Hammalari baxtiyor edi. Bir kuni Abror ishdan ertaroq qaytsa, onasining ko'zidan yosh quyilib, piyoz to'g'rab o'tiribdi. - Ha, onajon, o'zingiz urinib qolibsiz? - so'radi o'g'il. - Bolam, sizlarga bir manti qilib beray, deb harakatga tushib qoldim-da. - Hademay kelingiz kelib qilar. Qo'ying, siz urinmang. Ona bir dam sukut qildi, keyin miyig'ida kulib shunday dedi: - Odam qariganida u-bu ovqatni qo'msaydigan bo'lib qolarkan. Bir-ikki bor manti qilaylik, desam, gapim e'tiborsiz qoldi. Bolam bechora manti qilolmasa kerak, deb o'zim unnay qoldim. Hozircha kuch-kuvvatim bor, xudoga shukr. Abror ichkariga kirdi-yu xayol surib qoldi. Oyisi bechora kelin olib ham tinchimasa! Axir kelin olsam, xizmatimni bajarsa, deb orzu qilmaganmidi? Nazokat kelganida Abror mulohazalarini aytdi. Aytdi-yu baloga qoldi. - Nima, men o'ynab yuribmanmi? Ertadan-kechgacha uyda bekor o'tiradilar. Nima qipti ovqat tayyorlasalar, osmon uzilib tushiptimi? - Axir tushungin, Nazokat! Yoshlari bir joyga borib qolgan, buning ustiga kasalmandlar. - Bunaqa ekan, ishlatmasinlar edi. - Hech kim ishlashingga qarshi emas. Ammo ishlaganlar uyida mehmondek yurmaydi-ku! - Ha, men shunaqaman, chidasanglar, shu, bo'lmasa... Shunchaki boshlangan gap janjal bilan tugadi. Ne mashaqqatlar bilan tayyorlangan ovqat yeyilmay qolib ketdi, kelin «O'g'lingga shikoyat qilguncha o'zinga aytmaymanmi?» deb ona bechoraning dilini xufton, ko'nglini vayron qildi. Bunga ham chidamay uyiga arazlab ketib qoldi. Bir haftagacha kelmadi. So'roqlab borgan Abrorni qaynonasi rosa «tuzladi»: - Ha, shuncha vaqt yoqqan endi «puf sassiq» bo'lib qoldimi? Sizlarga tushib qolgan qizimiz yo'q. Ne qiyinchilik bilan katta qilganmiz, yana boqib

olishga qurbimiz yetadi. Mahalla-ko'y aralashib Nazokatni olib kelishdi. Lekin u ikki oy o'tmayoq, yana janjal chiqardi. Yana mashmasha, yana po'pisalar, pand-nasihatlilar... Ammo Nazokatning ko'zi ochilmadi. Ajralishga ariza berdi. Abrorning «Bolani tirik yetim qilmaylik», degan iltijolari ham qulog'iga kirmadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Abror qayta uylandi. Nazokat hamon ishlayapti, o'g'li bog'chaga qatnayapti. Ehtimol turmushi yaxshi ham bo'lar. Lekin o'g'li-chi? Endi u kimni dada, deydi, qachongacha uning «uzoq safardan qaytishini» intizorlik bilan kutadi? Axir u ulg'ayadi, hamma narsani tushunib oladi. Unda kimni ayblaydi? Hayotga, oilaga yengiltaklik bilan qaragan, hamma narsani o'z rohatidan ustun qo'ygan onasinimi yoki oilasi uchun qat'iyat, tadbirkorlik ko'rsata olmagan otasinimi? Mana bitta oila buzilib ketdi. Agar kelinimiz bir gapdan qolganida, uydagilar bilan murosa qilish yo'llarini axtarganida, yoshi ulug' qaynonasini hurmat qilib, xizmatini ayamaganida oila inqirozga uchramas, o'rtada bola tirik yetim bo'lmas, er qayta uylanmas edi. Jinday murosasizlikning bahosi ana shunday qimmat bo'ldi. Xalqimiz «Oila qurish - nina bilan qasr barpo qilishga teng», deydi. Darhaqiqat, oilaning, turmushning, ro'zg'orning ming bir mashaqqati, sinovlari bor. Unga tayyor bo'lmagan, uylarida erka, tantiq, ishyoqmas bo'lib o'sgan qizlarimiz kelin bo'lgan joylarida darrov «fosh» bo'lib qolishadi. O'z kamchilik-nuqsonlarini tugatish, bilmaganlarini o'rganish, oiladagi ikki-uch kishining ko'nglini olish o'rniga darrov «huquqlarini» talab qilishga, o'z «hukmronliklarini o'rnatishga», bo'lar-bo'lmasga mojaro-janjal chiqarishga harakat qiladilar. Bilmaydilarki, turmushga chiqishning o'zi baxtlilik, farovonlik asosi emas. Baxt mashaqqat, sabot, qanoat, fidoyilik bilan qo'lga kiritiladi. Yaqinda oliy o'quv dargohlaridan birining talaba qizlari o'rtasida «Siz qanday yigitga turmushga chiqishni xohlardingiz?» degan savol bilan so'rov o'tkazishibdi. Berilgan javoblarda ular bo'lajak erlarining bo'yi uzun, qomati kelishgan, oqmag'izdan kelgan, hind kinoartistlariga o'xshagan, sevadigan, mard, baquvvat, puldor kabi fazilatlariga ega bo'lishini istashgan. Ammo javoblar orasida «Erim aqlli, esli-hushli, odobli, diyonatli, oilaga vafodor, ota-onasiga mehribon bo'lsin», degan gaplarni deyarli uchratmaysiz. To'g'ri, insonning tashqi qiyofasi, chehrasi ham muhim narsa. Ammo uning ichki dunyosi, sizga atalgan his-tuyg'ularining ahamiyati yo'qmi? Uning oilaga muhabbati, siz va qaynonangiz o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashdagi iqtidori shart emasmi? Erini faqat tashqi ko'rinishiga qarab tanlagan qizlarimiz ertaga tom ma'noda baxtli bo'la olarmikanlar?

**RIVOYAT.** Hazrati Ibrohim alayhissalom to'ng'ich o'g'li Ismoil alayhissalomni ko'rgani Makkaga keldi. O'g'lining uy eshigini taqillatganda bir xotin eshikni ochib qo'pollik va zarda bilan so'radi: - Kimsan, kimni so'rayapsan? - Siz kimsiz? - deya so'radilar Ibrohim alayhissalom. - Men Ismoilning xotini, - dedi ayol o'shqirib. - Ismoil qaerda? - so'radilar otalari. - Uyda yo'q, ovga ketgan. Ismoil alayhissalomning bu xotini qo'pol va sovuq ayol edi. Tarbiyasi ham yomon, o'zi yaramas axloqli edi. Uning aqli past, qalbi kir bo'lganidan qariyaning kimligini ham so'ramadi. Ibrohim alayhissalom otdan ham tushmay, ularning ahvolini so'radilar. Bunga javoban xotin: «Juda qiyinchilik bilan yashayapmiz», deb aytdi. Ibrohim alayhissalom o'g'lining bunday nonko'r, qo'pol, axloqsiz ayolga uylanganidan ranjib, ketar chog'ida: - Ering kelishi bilan unga aytib qo'y, uyining ostonasini almashtirsin, - deb tayinladilar. Kunlardan bir kun Ibrohim alayhissalom yana o'g'illarini ko'rgani keldilar. Bu gal eshikni yoshgina ayol ochdi va «Erim uyda yo'q, ovga ketgandi», dedi. Ibrohim alayhissalom ularning ahvolini so'radilar. Xotin: - Allohga shukr, juda yaxshi, tashvishimiz yo'q, - deb javob qildi va yana, - hazratim, uzoq yerdan kelayotgan ko'rinasiz, uyga kirib biroz dam oling, ovqat ila mehmon qilaman, - deb Allohning payg'ambariga iltifot, hurmat ko'rsatdi. Qo'yarda-qo'ymay u kishining otda turgan hollarida oyoqlarini yuvib, kiyimlarini tozalab berdi. Ibrohim alayhissalom egilib bu odobli, chiroyli, go'zal xulqli kelinlarining boshidan o'pdilar va ketarda tashakkur aytib, unga tayinladilar: - Xojangga ko'p salom ayt, uyining ostonasini yaxshilab muhofaza qilsin, qo'riqlasin. Ismoil alayhissalom otalarining tavsiyalari bilan avvalgi badfe'l, badaxloq xotinlarini haydab, keyingi xushxulq, tavoze'li, mehmondo'st, serhimmat xotinlariga ko'p minnatdorchiliklar izhor qildilar. Darhaqiqat, yaxshi, soliha, xushaxloq xotin er uchun bir jannat misolidir. Tarbiyasiz, axloqsiz, janjalkash xotinlar esa do'zaxdan ham battar. Bir kuygan er: «Hamma qizlar yaxshi-yu, yomon kelinlar qayoqdan paydo bo'lar ekan?» deb hayron bo'lgan ekan. Chunki ota-onangiz barcha erkalik,

noz-firoqlaringizni ko'taradi, nuqsonlaringizdan ko'z yumadi. O'zga xonadonda esa bu tezda oshkor bo'lib qoladi. Shuning uchun to'ydan keyin barcha yomon qiliqlaringizdan voz kechib, chiroyli amallar qilishni boshlasangiz, faqat o'zingizga yaxshi bo'ladi. Islom ummatining payg'ambari Muhammad alayhissalomdan yaxshi va yomon xotinlar xususida bir necha hadisi shariflar vorid bo'lgan, yangi turmush qurayotgan va qurgan yigit-qizlar ana shu ko'rsatmalarni yaxshi bilmoqlari maqbul edi. Janobi Rasululloh dedilar: «Ummatim xotinlarining afzali xushro'y bo'lgaylar va qahrlari kam bo'lgay!» Yana bir hadisi sharifda esa: «Mo'min kishi dushmanining zo'rrog'i yomon xotindir», deyilgan. Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Uch xil yomon sifat bordirki, ular (ma'naviy) faqirlikdandir, bularning uchinchisi yomon xotindirkim, birga bo'lsang, ozor beradi, yo'q bo'lsang, xiyonat qiladi». Payg'ambarimizning kuyovlari hazrati Ali (r.a.) yomon xotinlar haqida shunday deganlar: «Yomon xotinlar yasanib, oro berib, barhana (yalang'och) yuradigan bo'lgaylar, dindan, ya'ni musulmonlikdan yalang'och bo'lgaylar, din va shariat, musulmonchilik qanday ekanini bilmagaylar. Fitnalarga, ya'ni yo'ldan ozdiradiganlarga doxildirlar, shahvatga moyildirlar, lazzatga shitob qiladigandirlar, ya'ni shirin va mazali narsalarga tez borguvchilardir. Harom narsalarni halol bilguvchilardir. Bular jahannamda doim va hamisha bo'lg'uvchidirlar». Darhaqiqat, yomon kelinlar erlariga va uning yaqinlariga qo'pol, dag'al muomalada bo'ladilar. Xonadon yumushlaridan bo'yin tovlaydilar. Erning mol-mulkiga beparvo bo'lib, asrab-avaylamaydilar va isrof qiladilar. Yolg'on gapirishdan, chaqimchilikdan, hayosizlikdan uyalmaydilar. Oilaning tinchi, farog'ati, farovonligi haqida o'ylamay, har kuni - kun osha oila a'zolarining oromini buzib janjal ko'taraveradilar. Ularga na pandu nasihat, na kattalarning yo'l ko'rsatishi, na qonun-tartiblar, na farzandlar qismati - hech narsa kor qilmaydi. Ular ana shunday badbaxt kimsalardir.

## ENG YAXSHI YO'L – MUROSA

Ko'pincha qaynona va kelin munosabatlari haqida so'z borar ekan, ana shu abadiy muammoni hal etishni har kim o'zicha har xil sharhlaydi. Kimdir butun aybni «zolim» qaynonalarning «yovuzligi»ga, kimdir «makkor» kelinlarning «o'tkirligi»ga, yana boshqasi har ikki tomonni kelishtira olmagan «lapashang» kuyovga to'nkaydi. Aslida kim aybdor? Bu g'avg'o-yu mashmashalarda murosa-yu madora io'lini tutolmagan, islomii axloq-odoo ko'rsatmalarini tan olmaydigan har bir kishi aybdor bo'lsa kerak! Qaynona «Men kattaman, kechirimli bo'lay, yosh, g'o'r kelinni yaxshi gapirib yo'lga solay!» demasa, kelin bola «Qaynonam oilaning bekasi, kattasi, sevgan erimning oq sut bergan, tarbiyalagan onasi bo'lsa, nega uni hurmat qilmayin, nega xizmatidan bo'yin tovlayin?!» demasa - ikki o'rtada mojaro chiqaveradi. Qaynota va kuyov bu hangomalarga tomoshabin bo'lib turaversa, adolat qilmasa, mojaro katta janjalga, qo'ydi-chiqdilarga, shirin turmushlarning kushandasiga aylanaveradi. Shayx Muhammad Abu Zahra oilani uch qismga bo'ladilar: birinchi qism - er-xotin, ikkinchi qism - farzandlar, uchinchisi esa - yaqin qarindoshlar (ya'ni, ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqalar)dir. Ana shu uch qism ahil-totuv bo'lgandagina oila tinch-osoyshta va fayzli bo'ladi, aks holda urish-janjaldan boshi chiqmaydi. To'y vaqtida va oilaviy hayotning avvalida kelin-kuyovga turli maslahatgo'ylar, g'amxo'rlar ko'payib ketadi. Umr yo'ldoshini «gah, desa, qo'lga qo'nadigan qilib olish» haqida maslahatlar berishadi. Vaholanki, ularning o'zi tajribasiz, maslahatga muhtoj, fikri tor kishilardir. Ularning «jaydari» yo'l-yo'riqlari oilaga foyda keltirish o'rniga rahna soladi. Islomiy tarbiyaga ko'ra, er - oilaning rahbari, uning hamma tomoniga mas'ul hisoblanadi. Ammo bu ayrimlar o'ylaganidek, «deganim degan» qabilida ish tutish, oilaning boshqa azolariga zulm o'tkazish huquqi berilgani emas. Aksincha, u xotining haqlarini to'la ado etadi, ota-onani o'zi va xotini tomonidan hurmat-ehtirom qilinishini ta'minlaydi, ro'zg'or ta'minoti bilan shug'ullanadi, oilasini halol rizq bilan boqadi. Bu degani - o'zi yeganini oilasiga yediradi, o'zi kiyganini kiydiradi, ro'zg'orning kerakli jihozlarini xarid qiladi. Xotiniga yaxshi muomalada bo'ladi, uning Islom shariati belgilab bergan haqlarini to'la ado etadi, agar ayol tarbiyasiz, axloqsiz bo'lsa, uni pand-nasihatlar, tanbehlar bilan yo'lga soladi. Alloh taolo Qur'oni karimda: «Xotinlaringiz bilan yaxshilikda yashang, agar-chi ularni

yoqtirmasangiz ham. Shoyadki, sizga yoqmagan narsaning ortidan Alloh sizga ko'p yaxshiliklarni ravo ko'radi», deb marhamat etgan. Erlarning yana bir vazifasi - xotinlari xato yoki kamchilikka yo'l qo'ysa, kechirimli bo'lib ularni tuzatish, ularning aybini berkitish, xotini va oilaning boshqa a'zolari o'rtasida ixtilof chiqsa, buni isloh qilish va murosaga keltirishdir.

**RIVOYAT.** Xotini bilan noiloj ajrashayotgan bir solih kishidan uning nima aybi borligini so'rashibdi. Shunda u: «Birovning aybini so'rab nima qilasiz? Agar u bilan qayta yarashib ketsam, o'z xotinimning ayblarini boshqalarga fosh qilgan bo'laman. Yarashmasam, begona bir ayolning aybini ochib sharmanda qilgan bo'laman. Unisi ham, bunisi ham odobdan emas», degan ekan. Ko'rdingizmi, ajdodlarimiz hatto ajralishib ketayotganda ham bir-birlariga yomon gapirmaganlar, ayblarini yashirganlar. Chunki ular Rasuli akramning (s.a.v.) «Sizlarning yaxshilaringiz o'z ahli ayoliga yaxshi munosabatda bo'lganingizdir», degan hadislariga rioya etishgan. Erga shunday talablar qo'yilgan ekan, oila farog'atida, totuvlik va ahilligida kelinlarimizning ham alohida burch va vazifalari bor. Keling, yaxshisi yuqorida tilga olingan Horisning qizi Asmoga onasi Umoma tomonidan kuyovnikiga jo'natish oldidan qilingan o'nta nasihatni keltirib o'taylik:

«1. Qanoat sohibasi bo'l. O'z holingga shukr qil. Ya'ni, ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh yeydigan, xoh kiyadigan narsa bo'lsin, xushfe'llik bilan, go'zal odob bilan qabul qilib ol! Eringga tashakkur aytib xushnudlik ko'rsat. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo'li o'z holiga shukr etmoqlikdir. Holiga shukr etmagan, o'z nafsini tiymagan kishida ko'ngil huzuri, qalb rohati bo'lmaydi!

2. Eringga itoat et, qil, degan ishlarini qil, qilma, deganini qilma!

3. Eringning ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber! Ya'ni, uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut. Shunday qilki, xojangning ko'ziga bir chirkin yer ko'rinmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xushbo'yni sezsing, dimog'iga yomon hid kelmasin. Chunki yomon hidlar ering ko'z o'ngida sening obro'yingni tushiradi. Sendan irganishiga sabab bo'ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zaiflik eng yaxshi narsalardir, inson ko'ziga xush ko'rinishlik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla. Ya'ni, ovqatlanish vaqtini hech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytga ovqatini tayyorlagin. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning jahlini tez keltiradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib ol! Ya'ni, uning qachon uyquga yotish payti bo'lsa, o'rnini tayyorlab qo'y. Zero, uyqusizlik insonni xafaxon etadi. Asablari buzuq, xafaxon odamlarning ehtirosi muhabbatini sekin-sekin so'ndiradi.

7. Xojangning moli va ashyosiga juda e'tiborli bo'! Ya'ni, xojangning mol-dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgin. Chunki uning mol-dunyosi senikidir. Erning mol-dunyosini isrof etmaslik - ish bilish va qadriga yetish, demakdir.

8. Eringning qarindoshi va yaqinlariga hurmat ko'rsat! Ya'ni, xojangning qarindoshlari va yaqinlariga hurmat xojangning e'tiborini qozonmoq, demakdir. Ularni hurmat qilish xojangni hurmat qilish, demakdir. Bu esa qadr va e'tibor qozonishingdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma! Ya'ni, eringning ba'zi sirlarini bilgan vaqtingda ehtiyot bo'lib uni saqla, birovlariga aytib yurma. Agar aytib qo'ysang, uning g'azabini keltirib qo'yasan, ishonchini yo'qotasan. Bunda tuzayotgan oilangiz buziladi.

10. Eringning dinga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Ya'ni, xojangning dinga uyg'un bo'lgan buyruqlarini bajarishda tanbal bo'lma. Hech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo'lmasin. Agar shunday bir harakat bo'lsa, senga kin saqlab oxiri dushman bo'ladi. U senga dushmanlik yo'lini tutsa, sen ko'p zarar ko'rsan va qo'lingdan hech narsa kelmaydi. Shuni yaxshi bilib olginki, xojang xafa bo'lganda sen nash'ali, xursand bo'lishdan, u xursand bo'lganda sen xafa ko'rinishdan juda ehtiyot bo'lgin. Chunki uning xafa bo'lgan paytida sening xursand ko'rinishing, uning quvonchli bo'lgan vaqtlarida sening g'amgin bo'lishing unga hamdard bo'lmaslik kabi bir qusurni o'rtaga tushiradi. Bu esa fahmsiz va tarbiyasi yomon odamlarga mansub ishdur. Bu sen kabi yuksak bir tarbiya ko'rgan aqlli va oqila xotinlarga mansub emas. Bolajonim! Eringga qanchalik ko'p sevgi va hurmat ko'rsatsang, o'zing shunchalik muhabbat va hurmatga erishasan. Aytganlarini

qanday bajarsang, so'zlarini tinglasang, shu darajada muhabbat va hurmatga sazovor bo'lasan». Bu dono o'g'itlarga, nasihatlariga qo'shimcha qilish, izoh berishning hojati bo'lmasa kerak!

### SEPLI BO'LGUNCHA...

Yangi kelin har qancha go'zal va xushqomat bo'lmasin, har qanday boy-badavlat, obro'li xonadondan kelmasin, dono va odobli bo'lmasin, ro'zg'or yumushlarini bilmasa, saranjom-sarishta ish tutmasa, xullas, epli bo'lmaguncha borgan joyida obro' qozonolmaydi. Bekorga xalqimiz «Sepli bo'lguncha, epli bo'l», deb aytmagan. Ammo ko'pincha qizlarimizning turmush, deya atalgan sinovga hech qanday tayyorgarlik ko'rmaganlari to'ydan keyinoq ochilib qolyapti. Non yopishni, ovqat qilishni, hatto oddiygina tuxum qovurishni ham eplay olmaydigan qizlar borligiga balki ishonmassiz? Axir bo'lajak kelinning o'zi tushgan oilaga mahkam ildiz otishi, obro' topishi, er-xotinning muhabbati yanada alanga olishi ko'p jihatdan kelinning pazandaligiga ham bog'liq-ku! Aksariyat oilalarda janjal, g'ishavalarning kelib chiqishi ko'pincha ovqatga borib taqaladi. Yosh kelinlar non yopish, mazali taomlar tayyorlashni o'z uylarida o'rganib olishlari lozim. Ovqat qilishdan oldin eng avvalo kattalarning istak-xohishlari inobatga olinadi. Ulardan «Nima ovqatni xohlaysizlar?» deb so'rash ham odobga kiradi. Kattalar ko'proq yumshoq, xushxo'r, suyuq ovqatlarni istashadi. «Menga bu yoqmaydi», «Men bu ovqatni bilmayman» qabilida zarfa qilib ularni og'rintirish insofdan emas. Yosh uy bekasi avvalo har ishda saranjom-sarishta, tejamkor bo'lishi kerak. Kelinchak bu fazilatni egallasa, ro'zg'or ishlarida qoqilmaydi, birinchi kunlardan oq atrofdagilarning hurmat-e'tiborini qozonadi. Aksincha, u ro'zg'or yumushlarini pala-partish, sovuqqonlik bilan bajarsa, o'zi ozoda, did bilan kiyinmasa yoki o'ziga oro berib qaramasa, mehmon kutishni bilmasa, uyni pokiza, ozoda tutmasa, erining katta-kichik yumushlariga beparvolik qilsa, bunday kelinchak aslo oiladagilarga yoqmaydi. Bu holning tuzalishidan umidini uzgan qaynona- qaynota oxiri sabri tugab, bunday epsiz kelinning bahridan o'tish tashvishiga tushib qoladi yoki bu kelinning butun umri ta'na-malomatlar, mojaro-tortishuvlar bilan o'tadi. Kelinlarimizning oiladagi hisob-kitob ishlariga befarqligi ham qimmatga tushishi mumkin. Elektr chiroqlarini zaruratsiz yoqib qo'yadigan, masalliq'larni isrof qilib yuboradigan, ro'zg'or yuritishda tejamkor bo'lmagan kelinlar ham xonadonga suyumli bo'la olmaydilar. Yaqinda mahallamizda qaynona-qaynota hovlining chiqimlarini to'laymiz, deb ajratib qo'ygan pullariga o'zboshimchalik bilan qandil xarid qilgan kelinning sal bo'lmasa turmushi buzilib ketay, dedi. Yoki jurnalist M. Ahmadboeva hikoya qilgan mana bu holatga nima deysiz:

**VOQEA.** ...Tunov kuni avtobusda ketayotgan edim. Yonimdagi o'rindiqlarda o'tirgan qiz hozirgina bekatdan chiqqan qiz bilan quchoqlasha ketdi: - Voy, Mahbu, bormisan? - O'zingmisan, Ra'no? - Ochilib ketibsan. Pochcham yaxshi yigitga o'xshaydi! - He, o'lsin, - dedi qo'l siltab Mahbuba ismli qiz. - Nega? Urishib qoldilaringmi? - Ajrashdik. - Voy, nimalar deyapsan, Mahbu? Bir oy bo'lmasidan-a? - taajjublandi Ra'no. - Axir uni sevarding-ku? - Onasi o'lgur yomonligini men qayoqdan bilay? Ertalab barvaqt turilgan uyda farishta bo'larmish. Kelin kelindek bo'lishi kerakmish. Eshikdan kim kirsan, salom berarmishman, o'n marta bo'lsa ham. Kechqurun albatta qozon-tovoqni yuvib qo'yishim shartmish. Ertalab yuvamanmi, obedda yuvamanmi - bu mening ishim, to'g'rimi? Xullas, hiqildog'imga keldi. Onasi bilan urishib qoluvdim, o'sha kuniyoq masalani hal qildim: «Yo meni deng, yo onangizni», desam, erim nuqul hiringlab kuladi: «Ham sizni deyman, ham onamni». «Bo'lmasa, bor o'sha onang bilan qo'shmozor bo'!» dedim-da, xayr-ma'zursiz uyga jo'navordim. Dugonalar keyingi bekatga tushib qoldilar. Negadir o'zining hayotiga yengil-elpi qarayotgan Mahbubaning gapi meni hayratga soldi. Hali kelinlik libosini yechmay turib oila, o'zi sevgan, ko'ngil bergan erining bahridan o'tish uni zarracha tashvishlantirmayotganligiga ajablanasan kishi. Xo'sh, endi u nima qilmoqchi? Ochig'ini aytganda qaynona aytgan gaplarning hammasi to'g'ri-ku. Barvaqt eshik ochilgan uyda fayz bo'lishi aniq. Xo'sh, kelin uyda ro'mol o'rab yurishining nimasi yomon? Eshikdan kirib kelgan odamga esa salom bermaslik odobsizlik emasmi? Yana qozon-tovoqni yuvmagan kelin qanaqa kelin o'zi? Qaynonaning o'g'itlarini nojo'yalikka olgan Mahbubaxon qattiq yanglishadi. Kim bilsin, hali oradan ancha vaqt o'tar,

Mahbubaxon yana oila qurib qaynonali ham bo'lar, lekin ishonchim komilki, u o'zining qilmishidan afsuslanadi... Unda kech bo'ladi, judayam kech. Yoshlikning qadriga yetmay, birinchi turmushidan sababsiz ajralgani uchun bir umr pushaymon bo'lib yashaydi. Turmushda uchraydigan ikir-chikirlar tufayli murosasi qochib, ajralishayotganlar qancha?». Nazarimda, oilada qiz bolaning or-nomusli, iffatli, go'zal xulqli qilib tarbiyalashdan tashqari uni kelajakda oila tebratib ketishi uchun lozim bo'lgan boshqa bir qator fazilat egasi ham qilib tarbiyalash kerakdek ko'rinadi. Kechirimli, kattalarga va turmush o'rtog'iga o'ta hurmatli bo'lgan, ozoda, shirinso'z, qolaversa, turmushning bor-yo'g'iga sabr qilib, tejamkor, tadbirkorlik fazilatlariga ega bo'lgan kelinlargina o'z turmush o'rtoqlariga munosib yor, qaynonalariga suyukli kelin bo'la oladilar.

## KELINLAR, HUSHYOR BO'LING

**VOQEA.** Ne'matjon to'y qilib o'g'lini uyladi. To'yda, tabiiyki, oilaning eski qadrdoni Alijon ham boshqalardan ko'proq yelib-yugurib xizmat qildi. Yangi kelin tushgan xonadon fayzli bo'ladi, deyishadi. Ne'matjonning yangi kelini ham epchilgina chiqib qoldi, erta tongda turib hovlini, ko'chasini chinniday supurib-tozalaydi, suv sepadi. Yosh, xushro'y kelinning o'z ko'chasida paydo bo'lishi Alijonning tinchini o'g'irladi-qo'ydi. Shayton vasvasa qilib ko'ngliga ne-ne qabih, iflos rejalarni soldi. Shofyor emasmi, ishga barvaqt ketadi, har gal ko'cha supurib yurgan qo'shnining kelinini ko'rib ilmoqdor gaplar otadi, tagdor qochirimlar qiladi. Bu hol takrorlanavergach, kelin bor gapni turmush o'rtog'iga aytadi. U ham hayron: «Qo'shni bo'lsa, otasining uzoq yillik qadrdoni bo'lsa! O'zi kelinli, nabirali odam, nahotki xotining gapi chin bo'lsa? Balki xotini adashayotgandir, uning samimiy gaplari shilqimlik bo'lib tuyulayotgandir?» Xullas, bunga boshqa hech kim uncha e'tibor bermadi. Kunlarning birida uyda kelindan boshqa hech kim qolmaganini bilgan Alijon anchadan buyon dillab yurgan rejasini amalga oshirmoqchi bo'ldi. Ne'matjonni so'roqlab uning xonadoniga kirib boradi va yosh kelinni zo'rlamoqchi bo'ladi. Yaxshiyamki, uning baxtiga qaynonasi ko'chadan kelib qoladi. Sharmanda bo'lishdan qo'rqqan Alijon devor oshib ko'chaga chiqadi va ishxonasiga jo'navoradi. Bechora kelin bor voqeani qaynonasiga oqizmay-tomizmay aytib beradi. Qo'shnining hech qaysi quyushqonga sig'maydigan, na qonunlarga, na shariat hukmiga, na axloq-odobga to'g'ri keladigan bu qabih qiligi uning ishxonasiga-yu mahalla-ko'yga ma'lum bo'ldi. Bundan qattiq g'azablangan mahalla ahli uning bu yerdan ko'chib ketishini qat'iy talab qildi. Yaqinda eshitganimiz yana bir voqea oldida bunisi ham holva ekan. Tanishlarimizdan birining tog'asi yaxshigina xonadonga qiz uzatgan ekan. Bir yilcha muqaddam qizning qaynonasi vafot etib, qaynota so'qqabosh qolibdi. Mahalla-ko'y, qarindosh-urug'lar maslahatni bir joyga qo'yib «Hali bardamsiz, uylab qo'yaylik», deyishsa, u sira ko'nmabdi. Xotin topishsa, rad qilaveribdi. Kosaning tagidagi nimkosa yaqinda ayon bo'lib qolibdi. Qaynota o'g'lining Rossiyaga savdogarchilikka ketganidan foydalanib anchadan buyon reja tuzib yurgan niyatini amalga oshirmoqchi bo'ldi. Avval kelinini o'zi bilan birga yotishga ko'ndirish uchun avraydi, xotinidan qolgan tilla taqinchoqlarni hadya qiladi, shirin va'dalarga ko'mib tashlaydi. Qat'iy rad javobini olgandan keyin unga po'pisa, tuhmat qilishga o'tadi. «Sen suyuqoyoqsan, o'g'lim yo'qligida boshqa yigitlar bilan don olishgansan, safardan kelishi bilan seni haydataman», deb rosa qo'rqitgan. Bolalarining yetim bo'lishidan, suyukli eridan ajrab qolishdan qo'rqqan yosh kelin avvaliga qaynotasining talabiga ko'nmoqchi ham bo'lgan. Biroq Xudo diliga solib uyiga qochib borgan va bor gapni ota-onasiga aytib bergan. Bechora ota-onaning boshi qotgan: bu gapni ovoza qilaylik, desa, har tomonlama sharmandalik! Qudasining qiliqlariga indamaslikka esa vijdon ham, e'tiqod ham yo'l qo'ymaydi. Nahotki ota o'rnidagi kishi, ikkinchi padari o'z farzandining nomusiga tajovuz qilsa, o'g'lining hamiyatini poymol qilib, uning halol-pok xotiniga ko'z olaytirsan? Axir Alloh taolo Qur'oni karimda: «Yana o'z pushti kamaringizdan bo'lgan o'g'illaringizning xotinlariga (uylanishingiz harom qilindi)», deb amr etib qo'ygan-ku! Mana shunda miyangni bir savol tinmay kemiradi: bizga o'zi nimalar bo'lyapti, nega bu qadar tubanlashib ketyapmiz? Qo'shnining keliniga ko'z olaytirgan, o'z kelini bilan to'shakni baham ko'rishni istagan bu yovuz va vijdotsiz kishilar qayoqdan paydo bo'lib qoldi? Uzoq

yillik istibdodning asoratlari, mustabid mafkuraning ming yillik qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib yuborgani oqibatida xalqimizning turmushiga kirib kelgan behayolik, fahsh, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi yaramas illatlardan iloji boricha tezroq qutulish payti kelmadimikan? Yoki ana shunday qabih, razil voqealarning sodir bo'lishiga teleekranlar, videolar orqali xonadonimizga kirib kelayotgan g'arbona «axloq» va oilaviy mojarolarning ko'rinishlari sabab bo'lmayotganmikan? Yana bir mulohaza: o'zga bir xonadonga kelin bo'lib tushgan qizlarimiz o'z iffatlari, hayolarini asrash haqida jinday o'ylab ko'rsalar yomon bo'lmasdi. Sir emaski, ayrim xonadonlarda yosh kelinlarimiz qarindosh -erkaklar, kuyovning do'stlari, qo'ni-qo'shnilar huzurida badan ko'rinib turadigan xarir liboslarda, ko'ksi ochiq ko'ylaklarda, xushbo'y atirlarga «cho'milib» bemalol yurishaveradi, bir dasturxonda o'tirishaveradi. Hatto o'pishib, quchoqlashib ko'rishishlar rasm bo'lib qolgan xonadonlar ham bor. Axir «Shayton hamisha hamroh», deydi xalqimiz. Tabiatan qiziqqon, ehtirosli bo'lgan o'zbek yigitlari bunday holatlar oldida o'z his-tuyg'ularini jilovlay olishlari mushkul emasmi? Vaholanki, Payg'ambarimiz alayhissalomning «Ikki nomahram erkak-ayol yolg'iz qolsalar, uchinchilari shayton bo'ladi», degan hadisi shariflari bor. Shuning uchun mukammal dinimiz kelinlarni (barcha xotin-qizlarni ham) hayoli bo'lishga, o'zlarini ochiq-sochiq, behayolarcha tutmaslikka, nomahram kishilardan chetlanib turishga da'vat etadiki, bunda eng avvalo o'sha qizning, juvonning sha'ni-obro'sini asrash, oila baxt-iqboliga rahna solmaslik, turli fitnalarga duchor bo'lmaslik ko'zda tutilgan. Shu boisdan kelinlarimizni «Hamisha hushyor bo'ling, hayo-iffat pardasini asrang, chunki insonga shayton doimo hamroh», deb ogohlantirgimiz keladi.

\* \* \*

Mana, muhtaram kitobxon, oila farog'ati, xususan, qaynona-kelin muammosi haqida imkoniyat qadar so'z yuritdik, donolarning pand-nasihatlaridan voqif etdik. To'g'ri, birgina bu risola oila, qaynona-kelin munosabatlaridagi barcha savollarga javob beradi, degan fikrdan yiroqmiz. Yuqorida o'qiganlaringiz sizlarga oilangizni farog'at qasriga aylantirishga, sodir bo'lib turadigan mojarojanlardan chetlanishga, oilada totuvlik, muhabbat, ahillik, oqibat nihollarini o'stirishga bir oz bo'lsa-da ko'mak bersa, maqsadimizga erishgan bo'lardik. Iloho, barchalarimizga bir-birimizga mehr-oqibatli, rahm-shafqatli bo'lish, oilalarimizda tinchlik-xotirjamlik va totuvlik oshyon qurishiga erishish nasib etsin, Haq taolo O'zining hidoyat yo'lidan adashtirmasin. Omin, yo Robbal olamiyn!